(24) formulaga birinchi qirqimdan ikkinchi qirqimgacha yo'qotilgan bosim $H_{yo'q1-2}$ (kollektor va to'g'ri havo quvurida yo'qotilgan bosim) qiymatlarini qo'yamiz. U quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$-H_{s2} + \frac{\rho v_2^2}{2} + (\xi_k + \frac{\lambda}{D} l) \frac{\rho v_2^2}{2} = 0.$$

Soddalashtirishdan keyin havo o'tkazgichdagi o'rtacha tezlikni aniqlash uchun quyidagi formula hosil bo'ladi:

$$v_2 = \sqrt{\frac{2H_{s2}}{\rho \left(1 + \xi_k + \frac{\lambda}{D} l \right)}}, \quad (25)$$



25-rasm. Qisuvchi uskunalar yordamida statik bosimlar farqini o'lchash sxemalari:

a — diafragma orqali; *b* — Venturi quvuri orqali.

bu yerda, H_{s2} — ikkinchi qirqimdagi statik bosim, mikromanometr yordamida aniqlanadi; ξ_k — kirish kollektorining qarshilik koeffitsiyenti; l — havo o'tkazgich to'g'ri qismining uzunligi, m; $l = l_1 + h$.

Qisuvchi uskunalar bilan tezliklarni o'lchash havo oqimini diafragmalar, soplo, Venturi quvurlari orqali o'tkazishga asoslangan. Bunda potensial energiyaning bir qismi kinetik energiyaga aylanishi natijasida tor kesimda o'rtacha tezlik ortadi, bosimlar farqi hosil bo'lib, u mikromanometr bilan o'lchanadi. O'lchangan bosimlarga ko'ra havoning tezligi va sarfi aniqlanadi.

Havo o'tkazgichdagi havoning o'rtacha tezligi qisuvchi uskuna yordamida quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$v = K\sqrt{\Delta P}, \quad (26)$$

bu yerda: ΔP — statik bosimlar farqi. Sxema asosida o'lchash orqali aniqlanadi (25-rasm); K — qisuvchi uskunalar konstruksiyasiga bog'liq bo'lgan tuzatuvchi koeffitsiyent.

Masalan, Venturi quvurlari uchun K koeffitsiyentni quyidagi formula bilan hisoblash mumkin (25-rasm, *b*):

$$K = \frac{1}{\sqrt{\frac{\rho}{2} \left(\frac{D^4}{d^4} - 1 \right)}}, \quad (27)$$

bu yerda: ρ — havoning zichligi, kg/m^3 ; D va d — quvurlar diametri, m.

Havoning tezligini havo sarfi orqali hisoblash. Ketma-ket kesimlarda biror-bir usul yordamida havo sarfi berilgan yoki topilgan

bo'lsa, havoning o'rtacha tezligini aniqlash mumkin. U holda o'rtacha tezlik v (m/s) ushbu formuladan aniqlanadi:

$$v = \frac{Q}{S}$$

bu yerda: Q — havo sarfi m^3/s ; S — tezlik o'lchanayotgan kesim yuzi, m^2 .

3-§. HAVONING HARAKATLANISH QONUNLARI

Havoni almashtirish texnikasida ikkita qonun: M. Lomonosov aniqlagan va L. Eyler tomonidan izohlangan harakatlanayotgan suyuqliklar uchun massaning saqlanish qonuni va D. Bernulli tenglamasi bilan ifodalanadigan energiyaning saqlanish qonuni keng qo'llaniladi.

D. Bernulli tenglamasidan havoni almashtirish qurilmalarini sinashda havo o'tkazgichlar, mashinalar, siklonlar va filtrlarda bosim yo'qotilishini aniqlash uchun foydalaniladi. Havo o'tkazgichlarda ikkita kesim olinib bittasi siklonga kirishdan oldin, ikkinchisi siklondan chiqishdan keyin, umumiy ortiqcha bosim o'lchanadi. Bu kesimlar uchun D. Bernulli tenglamasi yozilib, ikki kesim orasidagi bosim yo'qotilishi hisoblanadi:

$$H_{y1-2} = \pm H_{y1} - (\pm H_{y2}). \quad (28)$$

Bundan tashqari, D. Bernulli tenglamasi havo o'tkazgichlarda bosim taqsimlanish grafiklarini tuzishda ham qo'llaniladi.

Grafikdan olingan xulosalardan havoni almashtirish qurilmalarini loyihalash, hisoblash, sinashda foydalaniladi.

4-§. HAVO O'TKAZGICHLARDA BOSIMNING YO'QOTILISHI

Havo o'tkazgichlarda bosim yo'qotilishi H_y (Pa) havo harakatlanganda duch keladigan qarshiliklarni yengishga sarflanishi tufayli yuz beradi. Havo o'tkazgichlar to'g'ri va shakldor qismlardan iborat bo'ladi. Shuning uchun havo o'tkazgichlarda bosim yo'qotilishi quyidagi tenglikdan aniqlanadi:

$$H_y = H_{to'g'} + H_{shk}$$

bu yerda: $H_{to'g'}$ — to'g'ri havo o'tkazgichlarda bosim yo'qotilishi bo'lib, havoning havo o'tkazgich devorlaridagi ishqalanishni yengishga sarflanadi; H_{shk} — havo o'tkazgichlarning shakldor qismlarida yo'qotilgan bosimi (Pa). Bu bosim tezliklar, yo'qotilishlar, egilishlar, zarblar, oqimlarning uzilishi natijasida yuzaga keladi.

To'g'ri havo o'tkazgichlarda bosimning yo'qotilishi. Kesimi yuzi istalgan turda bo'lgan to'g'ri havo o'tkazgichlarda bosim yo'qotilishi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{\text{to'g'}} = \beta \frac{n}{S} l \frac{\rho v^2}{2}, \quad (29)$$

bu yerda: S — havo o'tkazgich ko'ndalang kesimining perimetri va yuzi, m^2 ; l — havo o'tkazgichning to'g'ri qismi uzunligi, m ; β — oqim tarkibi va havo o'tkazgich yuzasi holatiga bog'liq bo'lgan qarshilik ko'effitsiyenti; v — havo tezligi, m/s ; ρ — havoning zichligi, kg/m^3 .

Havoni almashtirish qurilmalarida changli havoni ko'chirishda odatda dumaloq kesimli havo o'tkazgichlardan foydalaniladi.

Dumaloq havo o'tkazgichlar uchun bosim yo'qotilishini hisoblash formulasi ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$H_{\text{to'g'}} = \frac{\lambda}{D} l \frac{\rho v^2}{2}, \quad (30)$$

bu yerda: D — havo o'tkazgichning diametri, m ; λ — to'g'ri havo o'tkazgichdagi qarshilik ko'effitsiyenti, u Reynolds soni va yuzaning g'adir-budirligiga bog'liq.

To'g'ri havo o'tkazgichlarda bosim yo'qotilishi $H_{\text{to'g'}}$ (Pa) yana quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$H_{\text{to'g'}} = Rl, \quad (31)$$

bu yerda: R — havo o'tkazgichning 1 m uzunligida bosim yo'qotilishi;


$$R = \frac{\lambda}{D} \cdot \frac{\rho v^2}{2}.$$

Formuladan ko'rinib turibdiki, bosim yo'qotilishini kamaytirish va energiyani tejash uchun diametri katta, uzunligi kichik, tezligi past qurilmalarni loyihalash maqsadga muvofiqdir.

Joylardagi qarshiliklarda bosim yo'qotilishi. Joylardagi qarshilikda bosim yo'qotilishi $H_{\text{j.q.}}$ (Pa) havo o'tkazgichda umumiy bosim yo'qotilishining 40 dan 80 % gachasini tashkil qiladi. U quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$H_{\text{j.q.}} = \xi \frac{\rho v^2}{2}, \quad (32)$$

bu yerda: ξ — joylardagi qarshilik ko'effitsiyenti, u shakldor qismlarning tuzilishi va parametrlariga bog'liq bo'ladi; v — havoning tezligi, m/s ,



26-rasm. Havo o'tkazgichning keskin kengayish sxemasi.

shakldor qismning eng katta havo tezligi qabul qilinadi. Masalan, konfuzor va diffuzorning eng tor qisimlaridagi tezlik olinadi.

Keskin kengayishdagi bosim yo'qotilishi. Havo o'tkazgich kengayishida havo tor 1—1 kesimdan keng 2—2 kesimga o'tganida havo tezligi va natijada energiya yo'qotiladi (26-rasm).

Keskin kengayishdagi bosim yo'qotilishini aniqlash formulasi

quyidagicha bo'ladi:

$$H_k = \left(1 - \frac{S_1}{S_2}\right)^2 \cdot \frac{\rho v_1^2}{2},$$

yoki (32) formulani hisobga olinganda

$$H_k = \xi_k \cdot \frac{\rho v_1^2}{2}, \quad (33)$$

bu yerda: ξ_k — keskin kengayish koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$\xi_k = \left(1 - \frac{S_1}{S_2}\right)^2. \quad (34)$$

Keskin siqilish koeffitsiyenti ξ_s esa quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\xi_s = 0,5 \left(1 - \frac{1}{n}\right),$$

bu yerda $n = \frac{S_2}{S_1} > 1$.

Havo chiqarishda bosim yo'qotilishi. Havo o'tkazgichdan atmosfera havoning chiqarilishi chiqarish deyiladi.


Chiqarish keskin kengayishning xususiy holi bo'lib, bunda kesim yuzi cheksizlikka tomon kengayib boradi (27-rasm).

Chiqarishdagi bosim yo'qotilishini aniqlash formulasi quyidagichadir:

$$H_{\text{chiq}} = \frac{\rho v_{\text{chiq}}^2}{2},$$

bu yerda: v_{chiq} — chiqarishdagi havoning tezligi, (m/s); $v_{\text{chiq}} = v_1$.

Chiqarishda bosim yo'qotilishi chiqarishdagi dinamik bosimga teng. Chiqarishni qarshilik koeffitsiyenti ξ_{chmk} esa birga teng; $\xi_{\text{chmk}} = 1$ chiqarishda bosimni yo'qotilishini pasaytirish uchun, chiqarishda



27-rasm. Havo o'tkazgichdan havoni chiqarish sxemasi:
a — diffuzorsiz; b — diffuzor bilan.


havoning tezligi kamaytiriladi, ya'ni diffuzor o'rnatiladi. Bunda yo'qotilgan bosim to'g'ri qismdagidan katta bo'ladi, ammo umumiy yo'qotilgan bosim bir muncha kamayadi va energiyani tejash imkoniyatini beradi.

Diffuzorda yo'qotilgan bosim. Diffuzor — havo o'tkazgichning shakldor qismi bo'lib, kesim yuzasini sekin kattalashtirish va havo tezligini kamaytirish imkoniyatini beradi. Diffuzor kesik konus yoki kesik piramida shakliga ega. Diffuzorda yo'qotilgan bosim $H_{y.d.}$ (Pa) quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$H_{y.d.} = \xi_d \frac{\rho v_1^2}{2},$$

bu yerda: v_1 — diffuzorning tor kesimidagi tezlik, m/s; ξ_d — diffuzorning qarshilik koeffitsiyenti.

Diffuzorning kengayish burchagi α qanchalik katta bo'lsa, qarshilik koeffitsiyenti shunchalik katta bo'ladi. $\alpha < 10^\circ$ da eng kichik qarshilik hosil bo'ladi. Amalda esa uzun diffuzorlar uchun joy yetishmaganligi sababli, kengayish burchagi 10° dan katta bo'lgan diffuzorlardan foydalaniladi. Diffuzorlar nafaqat chiqarishda, balki to'g'rilangan oqimlarda ham o'rnatilishi mumkin (28-rasm).



28-rasm. Diffuzorning sxemasi.



29-rasm. Havo o'tkazgichga kirish sxemasi:
a — devorga tegmasdan; b — devorga tekkan holda, yuzalari bir tekislikda;
d — devorga tekkan holda, quvurning qirralari aylana shaklida.

Havo o'tkazgichga kirishda bosim yo'qotilishi. Havo o'tkazgichga kirishda yo'qotilgan bosim H_{kh} (Pa) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{kh} = \xi_k \frac{\rho v_k^2}{2}$$

bu yerda: v_k — havo oqimining kirish tezligi, m/s; ξ_k — kirish qarshiligi koeffitsiyenti; u havo o'tkazgichning kirish joyidagi devor qalinligi va kirish joylarida to'siqlar mavjudligiga bog'liq (29-rasm).

Energiyaning bir turdan ikkinchi turga o'tish qoidasiga ko'ra, uning kirishdagi yo'qotilishi chiqish vaqtidagi energiya yo'qotilishiga teng bo'lishi mumkin. Shuning uchun kirishdagi eng katta qarshilik koeffitsiyenti chiqishdagi eng katta qarshilik koeffitsiyentiga teng:

$$\xi_{kir} = \xi_{chiq} = 1,0.$$


Kirishdagi haqiqiy qarshilik koeffitsiyenti $\xi < 1,0$ ga teng bo'ladi va havo o'tkazgich chekkalari qalinligi δ ning diametr D ga nisbatiga teng:

$$\xi_{kir} \approx 1 - 12 \frac{\delta}{D}.$$

Konfuzorda bosim yo'qotilishi. Konfuzor deb, havo o'tkazgichning havo tezligini asta-sekin oshirishga mo'ljallangan shakldor qismini aytiladi. Konfuzor kesik konus yoki to'rtburchakdan doiraga o'tgan shaklda bo'ladi.

Loyihalash vaqtida konfuzor havo o'tkazgich quvurlarini aspiratsiyalanadigan mashinalarga ulanadigan qismiga o'rnatiladi (30-rasm).

Bu hol qayta ishlangan mahsulotning havo bilan olib ketilishi va bosim yo'qotilishining oldini olish imkoniyatini beradi. Konfuzorlar ba'zan tekislangan oqimlarda tezlikni oshirish maqsadida ham o'rnatiladi (30-rasm, b).



30-rasm. Konfuzor sxemasi:
a — devorga mahkamlangan; l — konfuzor;
2 — aspiratsiya qilinadigan mashina; b — oqimga tenglashtirilgan.

Konfuzorda bosim yo'qotilishi H_{kon} (Pa) quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$H_{kon} = \xi_{kon} \cdot \frac{\rho v_2^2}{2},$$

Bu erda: ξ_{kon} — konfuzorning qarshilik koeffitsiyenti; v_2 — tor kesimdagi havo oqimining tezligi, m/s.

Tirsaklarda bosim yo'qotilishi. Tirsak deb, havo o'tkazgichning oqim yo'nalishini birdan o'zgartirishga mo'ljallangan shakldor qismini aytiladi. Tirsakning radiusi $R=0$ bo'lganda, havoning devorlarga urilishi va tezlikning yo'qotilishi natijasida katta qarshilik yuzaga keladi. Radiusi 0 dan katta bo'lgan tirsak silliq burchakli tirsak deyiladi (31-rasm).

Burilishda oqim yo'nalishi silliq o'zgaradi va tirsakdagiga nisbatan kam qarshilik yuzaga keladi.

Tirsakning burilish radiusi (R_0) havo o'tkazgich quvurining diametriga bog'liq bo'ladi:



31-rasm. Tirsaklar sxemasi:
a — tirsak, b, d — silliq burchakli tirsaklar.

$$R_0 = nD,$$

bu yerda n — burilish radiusining diametriga nisbati; ventilyatsiya qurilmalari uchun $n=2(1,5 \div 3)$; pnevmotransport qurilmalari uchun $n=5$ dan 10 gacha.

Tirsakda yo'qotilgan bosim (32) formula orqali aniqlanadi:

$$H_T = \xi \frac{\rho v^3}{2}.$$

Silliqliq burchakli tirsakning qarshilik koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$\xi_0 = 0,008 \frac{\alpha^{0,75}}{n^{0,6}},$$

bu yerda: $n = \frac{R_0}{D} > 1,0$.

Troynikda bosim yo'qotilishi. Troynik deb, havo o'tkazgichning ikki havo oqimini birlashtirish yoki ajratishga mo'ljallangan shakldor qismini atiladi (32-rasm).

Havo o'tkazgichning uchta oqimni birlashtiruvchi yoki ajratuvchi shakldor qismi krestovina deb ataladi.


Troyniklar simmetrik va nosimmetrik bo'ladi. Troynikning uchta diametri mavjud:

D_o — o'tish quvurining diametri;

D_{yo} — yon quvurning diametri;

D — birlashtirilgan oqim quvurining diametri.

Troynikning burchagi qanchalik kichik bo'lsa, qarshilik koeffitsiyenti ham shunchalik kichik bo'ladi. Odatda burchagi $\alpha \leq 150$ bo'ladi. Ammo uzunligi katta bo'lganligi sababli bunday troyniklarni



32-rasm. So'ruvchi havo o'tkazgichdagi troyniklar sxemasi:

a — nosimmetrik bo'lmagan troynik; b — simmetrik troynik; d — krestovina;
 ξ_a — asosiy oqimning qarshilik koeffitsiyenti; ξ_{yo} — yon oqimning qarshilik koeffitsiyenti.


loyihalab bo'lmaydi. Burchagi $\alpha = 30^\circ$ bo'lgan troyniklardan ko'p foydalaniladi. Agar uzunligi to'sqinlik qiladigan bo'lsa, burchagi $\alpha = 45^\circ$ va 60° bo'lgan troyniklar loyihalanadi.

Troyniklar yaxshi ishlashi uchun troynikda birlashtiriladigan oqimlarning bosimi teng bo'lishi kerak:

$$P_{u,u} = P_{u,yo} \text{ yoki } H_{u,u} = H_{u,yo}$$

$$\Sigma H_{y,u} = \Sigma H_{y,yo} \quad (35)$$

Aspiratsiya qilinadigan mashinalarda bosim yo'qotilishi. Aspiratsiya qilinadigan mashinada havo kirishidan chiqishigacha bosim yo'qotilishi quyidagi formula bilan ifodalanishi mumkin (33-rasm):



33-rasm. Mashinalarda bosim yo'qotilishini o'lchash sxemasi: 1 — aspiratsiyalanuvchi mashina; 2 — konfuzor; 3 — to'g'ri havo o'tkazgich; 4 — mikromanometr.

$$H_m = \left(\Sigma \frac{\lambda}{D} l + \Sigma \xi \right) \frac{\rho v^2}{2} \quad (36)$$

Tekshirish uchun savollar

1. Atmosfera bosimi qiymati o'zgarishiga qaysi parametrlar ta'sir qiladi?
2. Ortiqcha bosim va kam bosim deganda nimani tushunasiz? Ortiqcha bosimni va kam bosimni o'lchashning qanday usullari bor?
3. Havo hajmining haroratga bog'liqligini tushuntiring.
4. Havo hajmining bosimga bog'liqligini tushuntiring.
5. Havoning zichligini aniqlash uchun qaysi parametrlarni bilish kerak? Havo zichligi formulasi.
6. Mutlaq va nisbiy namlik deganda nimani tushunasiz? Ularning o'lchov birliklari.
7. Havoning nam saqlashi deganda nimani tushunasiz? Uning o'lchov birligi.
8. Nam havoning zichligi qanday hisoblanadi?
9. Quruq va nam havoning issiqlik saqlashi qanday hisoblanadi?
10. Havoni isitish va sovitish bilan bog'liq masalalar qanday qilib I — d diagramma yordamida yechiladi?
11. Bernulli tenglamasini yozing va tushuntiring.
12. Havoni almashtirish qurilmalaridagi havo oqimiga energiyaning saqlanish qonunini qo'llanishini tushuntiring.

III BOB. CHANG VA CHANG-HAVO ARALASHMALARI

1-§. CHANGNING TURLARI

Moddalarning (qattiq, suyuq yoki gazsimon) maydalanganlik darajasi ularning dispersligi (zarrachalarning yirikligi) bilan tavsiflanadi.

Chang deb, qattiq moddalarning mayin dispersli zarrachalari yig'indisini aytiladi. Changlar havoda muallaq holatda (aerazol) yuzada chang qatlami (aerogel) holatida bo'lishi mumkin.

Chang-havo aralashmasi dispers tizimlardan tuzilgan bo'ladi. U atrofdagi gazsimon (havoli) dispers muhitda tarqalgan qattiq dispers moddalardan tashkil topadi.

Chang birinchi holatdan ikkinchi holatga o'tishi mumkin. Chang aerazol holatdan aerogel holatga har xil kuchlar (og'irlik, elektr yoki markazdan qochma) ta'sirida o'tishi mumkin. Chang aerogel holatdan aerazol holatga zarb yoki tebranish, hamda havo oqimi ta'sirida o'tadi.

Aerazollik ikki turga: qattiq dispers fazali aerazol (chang va tutun) hamda suyuq dispers fazali aerazolga (tuman) bo'linadi. Qattiq dispers fazali aerazollik zarrachalarning o'tirish tezligi kichik bo'lib, noma'lum vaqt davomida muallaq holatda bo'ladi. Moddalarning changsimon zarrachalari xususiyatlari maydalanmagan boshlang'ich moddalarning xususiyatlaridan farq qiladi. Bu farq asosan maydalangan modda yuzasining ancha kattalashishi bilan bog'liq.

Hosil bo'lgan chang zarrachalari yangi xususiyatlarga ega bo'ladi: yongandagi kimyoviy faolligi ortadi; bino konstruksiyalari va uskunalarning yuzasida katta miqdorda elektrostatik zaryadlarni to'play va ko'chira oladi; ko'p miqdorda gaz va suv bug'larini yutadi (adsorbsiya).

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida donni ko'chirish, ishlov berish (tozalash), maydalash, yanchish va elash jarayonlarida chang hosil bo'ladi.

2-§. CHANGNING TASNIFI VA TAVSIFI

Korxona va boshqa joylarda hosil bo'ladigan chang organik, noorganik va aralash changlardan iborat bo'ladi. Organik changlarga o'simlik mahsulotlari: daraxt, paxta, don, un, shakardan hosil bo'lgan changlar kiradi. Noorganik changlarni metallar po'lat, mis,

cho'yan, aluminiy hamda minerallar kvars, asbest, chinni, sement va silliqdash changi tashkil etadi.

Chang hosil bo'lishi va kelib chiqishiga qarab quyidagilar: zarrachalarining yirikligi (dispersligi), zichligi, shakli, yonishi, har xil moddalarni yutish xususiyati va boshqa ko'p fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha farqlanadi. Changning asosiy fizik-texnik tavsifiga mayda-yirikligi (dispersligi) kiradi. Sanoatdagi changning o'lchamlari bir mikrondan bir necha mikrongacha bo'ladi. Bunda chang noto'g'ri shaklli va ko'ndalang kesimining o'lchamlari har xil bo'lgan zarrachalardan tashkil topadi.

Chang o'lchamlari bo'yicha (shartli ravishda) uchga bo'linadi: yirik chang (50 mkm dan 250 mkm gacha), o'rtacha chang (10 mkm dan 50 mkm gacha) va mayda chang (10 mkm dan kichik).

Chang mayda-yirikligining boshqa tavsifi sifatida zarrachalarining yirikligi, ko'ndalang kesimining shakl va zichligiga bog'liq bo'lgan yuzaga o'tirish tezligi xizmat qilishi mumkin. Yirik chang zarrachalari nisbatan katta tezlik bilan havodan ajralib yuzaga o'tiradi. Mayda chang zarrachalari havo oqimi ta'sirida ko'p vaqt davomida muallaq holatda bo'ladi.

Chang odam uchun zararlidir. Changning ta'siri zarrachalarining o'lchamlari va kimyoviy tarkibiga bog'liq. Yirik chang odam uchun kam xavfli, chunki burunning shilliq pardasida ushlanib qoladi. Odam sog'ligi uchun eng xavflisi mayda chang. Bu changning o'lchamlari 5 mkm dan kichik bo'ladi. Changning kimyoviy tarkibi bo'yicha xavfliligi uning tarkibidagi qumtuproq moddasining (SiO_2) miqdori bilan baholanadi.

Changning zararli (qo'rg'oshin, simob, mishyak va ohak changi) va zaharsiz (organik, metall va mineral chang) turlari mavjud. Don va un changida ko'p miqdorda har xil mikroorganizmlar bor.

Changning mexanik, kimyoviy va biologik ta'siri odam organizmiga zarar yetkazishi mumkin. Havodagi miqdori yuqori bo'lgan hatto zaharsiz changning ta'sir zonasida odamning ko'p vaqt bo'lishi uning nafas olish va ko'rish organlari, buyrak, nerv va yurak-qon tomirlari kasallanishiga olib keladi. Changning tarkibida 10 % dan ko'p kremniy qum oksidi bo'lganda o'pka surunkali kasallanishi mumkin. Chang teri, quloq, tishlarga ham zararli ta'sir ko'rsatadi, ba'zan esa yuqumli kasalliklar bilan kasallanishga olib keladi.

Donni qabul qilish korxonalari, tegirmon, yorma va omixta yem korxonalaridagi chang asosan aralash changdir (organik va

mineralzarrachalardan tarkib topadi). Changning organik qismi asosan o'simlik (boshqoq, somon, qobiqlar va b.) zarrachalaridan iborat bo'ladi.

Changning mineral qismini noorganik zarrachalar (tuproq zarrachalari, atmosfera changi) tashkil qiladi. Tegirmonlarda metallar changi ham bo'ladi, u mashinalarning ish yuzalari yeyilishi natijasida hosil bo'ladi. Elevatorlarda hosil bo'ladigan changda 50 % gacha mineral zarrachalar bo'ladi. Tegirmon va yorma korxonalarining donni tozalash bo'limlaridagi chang tarkibida 80...95 % gacha organik zarrachalar bo'ladi. Tegirmonning yanchish va qoplash bo'limlarida asosan 100 % organik chang (un changi) yuzaga keladi.

Donni qabul qilish va qayta ishlash korxonalarida yaroqsiz (qora), yembop (kulrang) va un (oq) changi hosil bo'ladi.

3-§. DONNI QABUL QILISH KORXONALARI VA TEGIRMONLARDA CHANG HOSIL BO'LISHI

Donni qabul qilish korxonalariga keltirilgan donning tarkibida ma'lum miqdorda chang bo'ladi. Bu changning bir qismi (mineral va organik) donlar orasidagi bo'shliqni to'ldiradi, boshqasi donning yuzasida bo'ladi.

Donni bir joydan ikkinchi joyga (uskuna yoki mashinaga) ko'chirishda va tozalashda chang hosil bo'ladi, ya'ni donning yuzasidagi va donlar orasidagi chang havoga ko'tariladi.

Donni qayta ishlash va qabul qilish korxonalaridagi hamma texnologik jarayonlarda chang hosil bo'ladi. Tegirmonlarda texnologik jarayonlarni tashkil qilish va boshqarish qoidalarida chang quyidagi toifalarga bo'lingan: birinchi — oq silliqlash changi; ikkinchi — kulrang silliqlash changi; uchinchi — aspiratsiyalash changi va qora silliqlash changi.

Havoni almashtirish (aspiratsiya) qurilmalari to'g'ri ishlatilsa, korxonaning ishlab chiqarish xonalariga chang kirmaydi. Buning uchun mashinalar yaxshilab zichlanmog'i (germetiklanmog'i) lozim.

Davlat standartlariga muvofiq korxona binosining ish zonalarida (odamlar ishlaydigan joylarda) changning ruxsat etilgan miqdori (konsentratsiyasi) quyidagicha bo'lishi: don changi 4 mg/m³ dan, un changi 6 mg/m³ dan oshimasligi kerak.

Aspiratsiya qurilmalari changli havodan changni ajratib olgandan keyin atmosferaga chiqarib tashlanadigan tozalangan havo tarkibida un changi 1 m³ da 100 mg dan, don changi 1 m³ da 60...80

mg dan ko'p bo'lmasligi kerak. Elevator atrofidagi havoda chang miqdori $1,2 \text{ mg/m}^3$ dan, tegirmon atrofida $1,8 \text{ mg/m}^3$ dan ko'p bo'lmasligi kerak. Odamlar doim yashaydigan joylarida chang miqdori $0,5 \text{ mg/m}^3$ dan oshmasligi lozim.

4-§. CHANGNING PORTLASH JIHATIDAN XAVFLILIGI

Donni qayta ishlash va saqlash korxonalaridagi sanoat changining yonish va portlash xavfi bor. Bu korxonalarda chang portlash xavfi bo'yicha to'rt sinfga bo'linadi. Un changi birinchi sinfga taalluqli bo'lib, u oson alangalanadi va portlash alangasini tez tarqatadi. Un changi yonishi uchun yongan gugurt cho'pinining issiqligi yetarlidir. Don changi ham tez alangalanadi, lekin uning yonishi uchun yuqori haroratli va katta miqdorda issiqlik talab qilinadi. Omixta yem korxonalaridagi chang ikkinchi va to'rtinchi sinflarga taalluqlidir. Chang portlashi uchun alanga o'chog'i va havoda changning ma'lum miqdori bo'lishi kerak. Statik elektr razryadlari ham yuqori harorat manbayi bo'lishi mumkin.

Changning portlash xavfining quyi chegarasi don changi uchun 40 dan 90 g/m^3 gacha, un changi uchun 10 dan 50 g/m^3 gacha va omixta yem changi uchun 7,6 dan 25 g/m^3 gachadir.

Muallaq holatdagi don va un changini zarrachalarining havodagi kislorod bilan teginish yuzasi katta bo'ladi. Bu hol changning kimyoviy faolligini oshiradi va yonishni tezlashtiradi.

Portlashdan oldin aerozollar alanga oladi va yonadi. Portlash vaqtida yonish tezligi bir necha yuz marta oshadi. Masalan: yonganda alanganing tarqalish tezligi $5...10 \text{ m/sek}$ bo'ladi, portlash natijasida esa u 500 m/sek ga yetadi.

Donni qabul qilish korxonalari va tegirmonlarda yong'in va portlashning oldini olish uchun quyidagi asosiy shartlarga rioya qilish kerak:

1. Ish xonalarda havodagi changning miqdorini sanitariya me'yorlaridan yuqori bo'lishga yo'l qo'ymaslik lozim. Uskunalar-da, shamollatish va pnevmotransport qurilmalarining havoda o'tkazgichlarida chang portlash jihatidan xavfli miqdorda to'planishiga yo'l qo'ymaslik zarur;

2. Aspiratsiya qismi o'chirilgan uskunalarni ishlatishga ruxsat bermaslik darkor;

3. Uskunalar va binoning qurilish konstruksiyalarida to'plan-gan changni muntazam ravishda tozalab turish kerak;

4. Binoning devorlari va shiftida tirqishlarni bo'lmashligini ta'minlash, ya'ni chang to'planishining oldini olish lozim;

5. Texnologik uskunalar va transport vositalarida issiqlik va uchqun manbalari yuzaga kelishi mumkin bo'lgan joylarni yo'qotish zarur.

Tekshirish uchun savollar

1. Changning fizik-kimyoviy xossalarini ayting?
2. Elevator, tegirmon va omixta yem korxonalaridagi uskunalaridan olinadigan changning kimyoviy tarkibi va yirikligi qanday?
3. Chang odam organizmiga ta'sir qilganda qanaqa kasalliklarga olib keladi?
4. Havodagi changning cheklangan joiz miqdorini ayting.
5. Havo-chang aralashmasi nima uchun portlaydi?
6. Don va un changi nima uchun yong'in va portlash jihatidan hisoblanadi?

IV BOB. CHANG AJRATGICHLAR

1-§. CHANG AJRATGICHLARNING TASNIFI

Chang ajratgichlar deb, havoni changdan tozalovchi qurilmalarni aytiladi. Ular atmosfera havosini ifloslanishdan saqlash, havodagi qimmatli yem va oziq-ovqat mahsulotlarini ajratib olish va changli havo portlashining oldini olish maqsadida havoni changdan samarali tozalashga mo'ljallangan.

Havoni almashtirish texnikasida havoni changdan tozalashning mexanik, elektr, kimyoviy va aralash usullaridan foydalaniladi.

Chang ajratgichlarda havo har xil kuchlar ta'sirida tozalanadi.

Gravitatsion va markazdan qochma chang ajratgichlarda og'irlik va markazdan qochma kuchlardan foydalanishga asoslangan mexanik quruq chang tozalash usulidan, inersion chang ajratgichlarda esa inersiya kuchlaridan foydalaniladi.

Filtrlovchi quruq filtrlar changli havoni g'ovak materiallar, masalan, gazlama, sintetik va keramik materiallar orqali o'tkazib tozalaydi.

Yog'li filtrlarda changli havo yupqa yog' qatlami surtilgan g'alvirsimon yopishqoq yuzalar orqali o'tayotganda, ularga chang zarrachalari yopishib qoladi.

Ho'l chang ajratgichlarda changli havo suv pardasi orqali o'tib tozalanadi, ushlab qolingani chang oqovaquriga tushadi. Shuning

uchun ho'l usuldan kam changli va oldindan tozalangan havoni tozalash uchun foydalaniladi.

Tozalashning elektr usuli chang zarrachalarini tokli razryad maydonida zaryadlash yoki changlarning ishqalanish vaqtida olgan statik zaryadlaridan foydalanishga asoslangan.

Kimyoviy tozalash usulida changli moddalar chang ajratgichning moddasi bilan kimyoviy reaksiyaga kiritishib tozalanadi.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida kimyoviy tozalash usulidan foydalanilmaydi. Elektr usul ham bir qator sabablarga ko'ra qo'llanilmayapti. Tozalashning mexanik quruq usuli keng qo'llaniladi, bunda ajratilgan changning yem va oziq-ovqat xossalari saqlanib qoladi.

Havoni quruq usul bilan tozalashning samaradorligini oshirish uchun turli chang ajratgichlarda ikki yoki uch bosqichli ketma-ket tozalashdan yoki aralash chang ajratgichlardan foydalaniladi.

2-§. CHANG AJRATGICH ISHINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Loyihalash vaqtida chang ajratish usuli va chang ajratkich turi tanlashda quyidagi ko'rsatkichlarni hisobga olinadi: tozalash samaradorligi, energiya sig'imi, gabarit o'lchamlari, metall sig'imi, tuzilishining murakkabligi, changning tarkibi va uning kirish va chiqish vaqtidagi miqdori.

Havoni changdan tozalash samaradorligi tozalash ko'effitsiyenti bilan aniqlanadi:

$$\eta = \frac{a_1 - a_2}{a_1} \leq 1,0 \text{ yoki } \eta = \frac{a_1 - a_2}{a_1} \leq 100\%,$$

bu yerda: a_1 — changning chang ajratgichga kirish vaqtidagi dastlabki miqdori, g/m³; a_2 — chang ajratgichdan chiqish vaqtidagi oxirgi miqdori, g/m³.

Havoni changdan tozalash ko'effitsiyenti hamma vaqt 1,0 bo'ladi. Havoni ikkita chang ajratgichda ikki bosqichli ketma-ket tozalashda tozalashning umumiy ko'effitsiyenti ushbu formula bilan aniqlanadi:

$$\eta = \eta_1 + \eta_2 - \eta_1 \cdot \eta_2 \quad (37)$$

bu yerda: η_1 va η_2 — birinchi va ikkinchi chang ajratgichlarning tozalash ko'effitsiyenti.

Chang ajratgichlarining foydalanish ishonchliligi uning qancha vaqt ta'mirlamasdan, ko'rikdan o'tkazmasda va sozlamasdan sa-

marali ishlashiga qarab aniqlanadi. Foydalanish ishonchliligi yuqori bo'lgan chang ajratgichlarga siklonlar kiradi.

Chang ajratgichlar energiya sig'imi chang ajratgichlarda bosim yo'qotilishi, ya'ni uning qarshiligi H_n — bilan tavsiflanadi.

Bundan tashqari, yordamchi ishlarga (changni chiqarish, filtrlash yuzalarini tozalash) sarflanadigan energiya ham hisobga olinadi.

Chang ajratgichning samaradorligini solishtirma energiya sarfi E_c (J/kg) bilan baholash mumkin:

$$E_c = 10^3 \frac{QH_n}{a_1 Q_n} = 10^3 \frac{H_n}{a_1 \eta_n} \quad (38)$$

Chang ajratgichning ish samaradorligi ko'rsatgichi sifatida texnik-iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti $E_{u,i}$ dan (m^3/J) foydalanish mumkin:

$$E_{u,i} = \frac{1}{E_c} \cdot \frac{1}{a_2} = \frac{1}{\left(\frac{1}{\eta_n} - 1\right) H_n} \quad (39)$$

Bu koeffitsiyent $1 m^3$ havoni tozalashga, yordamchi ishlar: ta'mirlash va xizmat ko'rsatishga sarflanadigan energiyani hisobga olmaganda, sarflanadigan energiyaning tejalishini ko'rsatadi.

Chang ajratgich turini va chang ajratish usulini tanlashda changning tarkibi, dastlabki va oxirgi miqdori hisobga olinadi. Masalan, havo o'tkazgichlarda yirik chang miqdorini kamaytirish uchun separatorlardan va savalash mashinalarini aspiratsiyalashda cho'ktirish kameralaridan foydalaniladi. Ulardan so'ng havo batareyali siklonlar va filtrlarga navbadagi tozalashga uzatiladi.

3-§. GRAVITATSION CHANG AJRATGICHLAR

Gravitatsion chang ajratgichlarga cho'ktirish kameralari va chang yig'gichlar misol bo'ladi.

Cho'ktirish kameralari. Cho'ktirish kameralari havo o'tkazish quvurlarida yirik chang zarrachalari miqdorini kamaytirish maqsadida donni tozalash mashinalarida (separatorlar, pnevmoaspiratorlar, savalash mashinalari) havoni dastlabki tozalash uchun qo'llaniladi.

Cho'ktirish kameralarining ishi gravitatsion va markazdan qochma kuchlardan foydalanishga asoslangan.

4-S. MARKAZDAN QOCHMA CHANG AJRATGICHLAR (SIKLONLAR)

Siklonlar havoni barcha turdagi changlardan tozalashga mo'ljallangan. Ularning tuzilishi sodda, ishonchli va tejamlil ishlaydi. Oddiy siklonlarning tozalash koeffitsiyenti 97—98%, modernizatsiyalanganlariniki esa 99% va undan yuqori bo'ladi.

Siklonlarning ishlash asosi. Siklonlarning ishlashi havo oqimiga aylanma harakat berish va changli oqimdan tozalash uchun markazdan qochma kuchdan foydalanishga asoslangan (34-rasm).

Chig'anoqsimon tangensial-vint shaklidagi siklonning A_1 va A_2 nuqtalarida turgan chang zarrachalariga markazdan qochma kuch (H) ta'sir qiladi:

$$P_m = m \frac{v_m^2}{r}$$

yoki sferik qism uchun

$$P_s = \frac{\pi d_{ch}^2 \cdot \rho_{ch} \cdot v_m^2}{6r}, \quad (40)$$


bu yerda: d_{ch} — chang diametri, m;
 ρ_{ch} — changning zichligi, kg/m³; v_m —
 oqim va zarrachalarni olib ketish
 tezligi, m/s; r — aylanish radiusi.

Tezlik v_m — kirish tezligiga
 bog'liq bo'ladi:

$$v_k = \frac{Q}{S_k},$$

bu yerda: Q — havo sarfi, m³/s; S_k —
 siklonning kirish qismi yuzi, m².

Markazdan qochma kuch
 ta'sirida chang zarrachalari radius
 bo'ylab v_r (m/s) tezlik bilan harakat-
 lanadi. Chang siklonda cho'kish
 uchun, chang zarrachalari A va B
 nuqtalardan siklonning tashqi silindri
 yoki konusida joylashgan A_3 va B_3



34-rasm. Siklon sxemasi:

- 1 — konus; 2 — tashqi silindr; 3 — ichki silindr;
 4 — havo chiqaruvchi patrubok; 5 — kirish
 patrubogi; 6 — qarama-qarshi nasosli konus;
 7 — changni chiqaruvchi patrubok.


nuqtalarga o'tish kerak. Keyin ajratilgan chang og'irlik kuchi ta'sirida konus l devorlari bo'ylab chiqish teshigi 7 tomon harakatlanadi.

Siklonda havoni changdan tozalash samaradorligi chang zarrachalarining o'lchami va zichligi, kirish tezligi yoki havo sari va siklon diametriga bog'liq bo'ladi.


Tozalash samaradorligini oshirish uchun siklon diametrini qisqartirish ham mumkin. Buning uchun loyihalash vaqtida katta diametrli siklon o'rniga diametri kichik bo'lgan siklonlardan iborat batareyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Havoni almashtirish qurilmalarida qo'llaniladigan siklonlar. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida siklonlarning to'rt turidan foydalaniladi. Siklonlarning birinchi uch turi (ЦОЛ, БЦ, ОТИ) tangensial-vintli chig'anoq, УЦ siklonlari esa spiral-tekis chig'anoq ko'rinishiga ega bo'ladi (35-rasm, 1-ilova).

Siklonlar shakliga qarab silindrsimon ($h_v > h_k$) va konussimon ($h_v < h_k$) turlarga bo'linadi. O'lchamlariga qarab katta diametrli bitta katta (ЦОЛ) va kichik diametrli batareyali (БЦ, ОТИ va УЦ) siklonlar bo'ladi. Havo oqimining aylanish yo'nalishiga qarab siklonlar o'ng (oqim soat strelkasi yo'nalishida aylanadi) va chap (soat strelkasiga qarshi aylanadi) turlarga bo'linadi (36-rasm, 3-ilova).




35-rasm. Siklonlarning sxemalari:
a — ЦОЛ, b — БЦ, d — ОТИ, e — УЦ.



36-rasm. 4БЦШ turidagi batareyali siklon.

YU siklonida spiralsimon-silliqliq kirish chig'anog'i bor. Bu siklondagi yuqori tozalash samaradorligi quyidagi konstruktiv o'zgartirishlar natijasida erishiladi (37-rasm):

1. YU siklonidagi kirish naychasi kvadrat shaklida bo'lib, siklonning gabarit o'lchamlaridan tashqariga chiqarilgan, bunda kirish chig'anog'i burchagi 180° bo'lgan, $R = \frac{D}{2} + \frac{a}{2}$ radius bilan chizilgan spiralsimon tashqi yuzaga ega.



37-rasm. Bir qator joylashgan YU turidagi batareyali siklon:

1 — vtulka-rolikli zanjir, 2 — ШУ-15 shluzli zatvor, 3 — mufta, 4 — PЧ-1 reduktori, 5 — yulduzcha ($z=20$, $r=19,05$), 6 — elektr dvigatel ($N=0,6$ kVt, $n=1410$ ayl/min), 7 — yulduzcha ($z=15$, $r=19,05$).

Bunday chig'anoq havoni tozalash samaradorligini oshiradi. Chunki siklonga kirish vaqtida barcha chang zarrachalari siklonning tashqi silindri yuzasiga chiqqan bo'ladi.

2. VII siklonida kirish chig'anoq'i gorizontal tekislik bilan almashtirilgan. Shuning uchun oqim bir aylanishdan keyin pastga tushmasdan zichlanib qoladi va kirish joyida havoni siqadi.

3. VII sikloni ichki silindrining diametri $0,38 D$ gacha ($0,6 D$ o'rniga) kamaytirilgan. Bu hol chang zarrachalari olib ketilish oldini oladi va tozalash samaradorligini oshiradi.

VII siklonlari samarali bo'lib, un changi uchun tozalash koeffitsiyenti $99-99,5\%$ ni tashkil qiladi.

Siklonlarning qarshiligi H_s (Pa) quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$H_s = \xi_s \frac{\rho v_k^2}{2}, \quad (41)$$

bu yerda: ξ_s — siklonning qarshilik koeffitsiyenti bo'lib, uning tuzilishiga bog'liq.

Chang tozalagichlargacha va chang tozalagichlardan keyin bir-lashtiriladigan havo quvurlarida qisuvchi uskunalar o'rnatiladi. Ular filtrlarda, batareyali siklonlarda havoning sarfi va qo'shimcha havo so'rilishini o'lchash uchun o'rnatiladi.


5-§. FILTRLAR

Matoli filtrlar. Matoli filtrlar havoni quruq usul bilan changdan samarali tozalashga mo'ljallangan. Bu filtrlarning tozalash koeffitsiyenti $99,8 \div 99,9\%$ ga teng bo'lib, havoning chiqishdagi chang miqdori 10 mg/m^3 dan ortiq bo'lmasligini ta'minlash imkonini beradi. Donni saqlash va qayta ishlash korxonalarida asosan so'ruvchi filtrlar qo'llaniladi.

Filtrlovchi matolarning tasnifi. Matoli filtrlarning ishlashi changli havoni iplarida tuklar bo'lgan g'ovak matolar orqali o'tkazishga asoslangan. Tuklar matoning bir tomonida, ya'ni changli havo ki-radigan tomonda bo'lishi kerak. Tuklar qanchalik mayin bo'lsa, tozalash samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Iplari sarjin usulida to'qilgan filtrlovchi matolardan keng foydalaniladi.

Filtrlovchi mato sifatida yarim dag'al jun va kapron shpate-lipdan tayyorlangan №2 mato keng ko'lamda ishlatiladi.

Sintetik iplardan tayyorlangan materiallardan filtr sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy ishlar olib borilmoqda.





38-rasm. So'ruvchi filtrlarning havoni tozalash sxemasi:

a — silkituvchi mexanizmli va birlamchi atmosfera havosini puflovchi filtr: 1 — tozalangan havo, 2 — changli havo, 3 — puflovchi havo kirishi; *b* — qisilgan havoni impulsli puflovchi yengli filtr: 1 — tozalangan havo, 2 — solenoidni yetkazuvchi klapan, 3 — siqilgan havoni yetkazib beruvchi naycha, 4 — soplo, 5 — so'ruvchi havo oqimi, 6 — avtomatik boshqaruvchi, 7 — yengli filtr sinchi, 8 — changli havo kirish joyi.

So'ruvchi filtrlarning tuzilishi. Г4-1БФМ markali filtrlar yuqori darajada zichligi, filtrga havoni kam so'ri-shi, silkitish muddatining kamligi bilan ajralib turadi (38-rasm).

Filtrovchi yenglarni siqilgan havo bilan impulsli puflab tozalovchi — so'ruvchi filtrlar (А1-БФЭ, А1-БФП, РЦИ va РЦИР) asosan havoni almashtirish va pnevмотransport qurilmalari uchun qo'llaniladi (39-rasm).

Bu filtrlarning silindrsimon korpusi 2 ga changli havo tangensial joylashgan kirish patrubi orqali kiradi. Silindrning ichidagi matoli yenglardan



39-rasm. ПИИР-3,9-9 markali filtr-ajratgich: 1 — tozalangan havo kamerasi; 2 — korpus; 3 — konussimon yig'gich; 4 — pnevmatik silkitkich; 5 — boshqarish uskunasi; 6 — puf-lagich klapani.

o'tgan tozalangan havo yig'ish kamerasi 1 ga o'tadi va chiqish patrubi orqali tashqariga so'rib olinadi. Matoli yenglarning tashqi yuzasida to'plangan changni tozalash uchun yenglarga siqilgan havo qisqa vaqt uzatiladi. Havodan ajratilgan chang silindrning konussimon qismi 3 da yig'iladi va shluzli zatvor orqali filtdan tashqariga chiqariladi. Matoli yenglar simsinchda mustahkam o'matilgan va ramaga osib qo'yilgan. Matoli yenglarni havo bilan purkash impulsining muddati 0,2...0,3 sek. Impulslar orasidagi vaqt 3...5 sek.

6-§. RESIRKULATSIYALOVCHI VA KONDITSIYALOVCHI QURILMALI CHANG AJRATGICHLAR

Ishlab chiqarish binolarida havo almashinuvi yuqori darjada bo'lishini ta'minlash va vakuumga qarshi kurashish uchun konditsiyalovchi yoki resirkulatsiyalovchi havoni almashtirish qurilmalari loyihalanadi.

Resirkulatsiyali tarmoqlarda havoni uzil-kesil tozalash uchun qo'llaniladigan chang ajratgichlarning yong'in jihatidan xavfsiz va yuqori darajada samarador bo'lishi talab qilinadi.

Ishlab chiqarish binolariga qaytarilayotgan havoning changliligi ruxsat etilgan me'yorning 30 %dan oshmasligi, ya'ni 1,2 mg/m³ dan yuqori bo'lmasligi kerak.

Konditsionerlar. Havo-suvli konditsionerlar xonalarda vakuum hosil bo'lishining oldini olish, mehnat sharoitini yaxshilash va texnologik jarayon samaradorligini oshirish uchun qo'llaniladi.

Konditsionerlar vazifasiga qarab farqlanadigan bo'lmalardan iborat. Bo'lmalarning soni va joylashish ketma-ketligi loyihalash vaqtida aniqlanadi.

Konditsionerlar turli sxemalar bo'yicha ishlashi, masalan, tashqi havoni konditsiyalashi yoki tashqi va resirkulatsiyalanuvchi havoni konditsiyalashi mumkin.

Tekshirish uchun savollar

1. Havoni changdan tozalash uchun sanitariya me'yorlariga muvofiq qanday talablar qo'yiladi?
2. Asosiy chang tozalashning usullarini ayting.
3. Elevator va tegirmonlarda qo'llaniladigan chang tozalagichlarning xillarini ayting.
4. Chang tozalagichlarning samaradorligi qanday aniqlanadi va baholanadi?
5. Chang cho'ktirish kameralarining ishlash asosini ta'riflang. Ularning kamchiliklari va afzalliklarini ayting.
6. Siklonlarning ishlash asosini ta'riflang.
7. Siklonlarning havoni tozalash samaradorligi qaysi omillarga bog'liq?

8. Siklonlarning diametrlari qanday aniqlanadi?
9. Batareyali siklonlar qaysi hollarda qo'llaniladi?
10. Siklonda changni yig'ish va chiqarish usullarini ta'riflang.
11. Yengli filtrlarning ishlash asosini ayting. Ularning afzalliklari va kamchiliklarini ko'rsating.
12. So'ruvchi filtrlarning yenglari qanday qilib changdan tozalanadi?

V BOB. VENTILATORLAR

1-§. VENTILATORLARNING TASNIFI

Ventilatorlar deb, 1000 dan 12000 Pa gacha bosimni ta'minlaydigan havo haydovchi mashinalarni aytiladi. Ventilatorlar havoga to'siqlarni yengishga sarflanadigan mexanik energiya va uni ko'chirish uchun kinetik energiya beradi.

Ishlash asosiga ko'ra ventilatorlar ikki turga bo'linadi:

— havo oqimiga energiya markazdan qochma kuch ta'sirida beriladigan markazdan qochma ventilatorlar;

— bo'ylama ventilatorlar, ularda havoga energiya aylanuvchi paraklarning bo'ylama kuchi ta'sirida beriladi.

Oddiy turdagi bo'ylama ventilatorlar bosimining kichikligi (350 Pa) va havo sarfining yuqoriligi ($65000 \text{ m}^3/\text{soat}$) bilan ajralib turadi. Shuning uchun bunday ventilatorlar sanoatda keng qo'llaniladi.

Shaxtali bo'ylama ventilatorlarda shovqinni kamaytirish uchun uzunligi 1000 mm bo'lgan shovqin so'ndirgichlardan foydalaniladi. Qalinligi 1 mm bo'lgan buklangan tunukadan tayyorlangan g'alvirli silindrning ichki diametri havo o'tkazgich diametriga teng qilib olinadi. Tashqi silindrning diametri ichki silindr diametridan 130 mm katta qilib olinadi. Silindrlar orasidagi bo'shliq tovush yutuvchi material bilan to'ldiriladi. Shovqin so'ndirgichlarning bir guruhi so'rish tomondan, ikkinchi guruhi purkash tomondan o'rnatiladi.

Sanoatdagi havoni almashtirish qurilmalarida markazdan qochma ventilatorlar ko'p qo'llaniladi, ular katta bosim hosil qiladi, toza va changli havoda bir xilda ishlay oladi.

Ish parragingining aylanish yo'nalishiga qarab markazdan qochma ventilatorlar o'ng (soat strelokasi yo'nalishida) va chap (soat strelokasiga qarshi yo'nalishida) turlarda ishlab chiqariladi. Spiralsimon qobig'ining joylashuviga qarab ventilatorlar yuqoriga, o'ngga, chapga va pastga qaragan qilib ishlab chiqariladi.

Ish parragingining uzatmasiga ko'ra ventilatorlar ikki turda ishlab chiqariladi.

Birinchi turdagi ventilatorda ish parragi elektr dvigatel valiga podshipniklarsiz o'rnatilgan. Qolgan barcha ventilatorlarda ish parragi o'qga ikkita podshipnik yordamida biriktirilgan.

Birinchi turdagi ventilatorlarning afzalligi ixchamligi, o'lchamlarining kichikligi va metall sig'imining kamligi bo'lsa, kamchilik kerakli aylanish chastotasini hosil qilishning imkoni yo'qligidir.

Bundan tashqari, elektr dvigatelining o'zak podshipnigi tebranish tufayli og'ir sharoitda ishlaydi. Podshipnik va elektr dvigatelin almashtirish va ta'mirlash uchun ventilatorni qismlarga ajratishga to'g'ri keladi.

Shuning uchun elektr dvigatelidan harakatni ponasimon tasmas uzatma vositasida oluvchi ventilatorlar keng qo'llaniladi.

Ventilatorlar vazifasiga ko'ra toza havoda ishlashga mo'ljallangan umumiy va changli tajovuzkor sharoitda ishlashga mo'ljallangan maxsus turlarga bo'linadi.

Umumiy ventilatorlarga past va o'rtacha bosimli BPH, BP, U4-70, C9-57 ventilatorlari, maxsus ventilatorlarga o'rtacha bosimli БСП, o'rta va yuqori bosimli ventilatorlari СП-7-40 kiradi.

Ventilatorlar solishtirma aylanish tezligi bilan tavsiflanadi. U havo sarfi Q ning ventilator bosimi H_b ga nisbatini ifodalaydi. Ventilatorning solishtirma aylanish tezligi deb, $1 \text{ m}^3/\text{sek}$ havo harakatlanadigan va 10 Pa bosim hosil qilinadigan aylanish chastotasini aytiladi. Ventilatorning solishtirma aylanish tezligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$n_s = 5,3 \frac{Q^{0,5}}{H_b^{0,75}} \cdot n,$$

bu yerda: Q — havo sarfi, m^3/sek ; H_b — ventilatorning bosimi, Pa ; n — aylanish chastotasi, ayl/min .

Formuladan ko'rinib turibdiki, havo sarfi katta va bosimi kichik bo'lgan ventilatorlar katta tezlikda aylanadi va aksincha. Masalan, past bosimli o'qli ventilatorlarda $n_s > 200$, o'rtacha bosimlilarda 100 dan 200 gacha, yuqori bosimlilarida 50 dan 100 gacha bo'ladi. Past bosimli markazdan qochma ventilatorlarda $n_s \geq 50$ ni, o'rtacha bosimlilarda 50 dan 25 gachani, yuqori bosimlilarda $n_s < 25$.


2-§. MARKAZDAN QOCHMA VENTILATORLARNING TUZILISHI

Markazdan qochma ventilator ish g'ildiragi, spiral simon qobi podshipnikli val, yuritma shkivi va staninadan iborat.

Ventilatorning ish g'ildiragi parrak, disk va vtulkadan iborat bo'lib, ish g'ildiragi kavsharlash yoki shtamplash usuli bilan tayyorlanadi.

Umumiy maqsadlarga mo'ljallangan ventilatorlarning ish g'ildiragida $z > 12$ dona parrak, chang ventilatorlarida $z < 12$ parrak bo'ladi.

Umumiy maqsadlarga mo'ljallangan ventilatorlarda parraklarning radius bo'ylab uzunligi ish g'ildiragining enidan kichik, chang ventilatorlarida esa katta bo'ladi.



40-rasm. P3-Б.Б-Ц5-37 va P3-Б.Б-Ц4-60 ventilatorlari.

Ish g'ildiragining eni hosil qilinadigan bosimga bog'liq: bosim qanchalik katta bo'lsa, ishchi g'ildiragining eni shunchalik kichik bo'ladi. Past bosimli ventilatorni ish g'ildiragi eng katta, yuqori bosimli ventilatorniki esa eng kichik bo'ladi.

Markazdan qochma ventilatorlarning kirish teshiklari yumaloq bo'lib, ish g'ildiragining o'qida joylashgan. Chiqish teshigi aylanish yo'nalishida bo'lib ish g'ildiragi va qobiqqa tutashtirilgan. Kirish teshigida naycha o'rnatilgan bo'lib, uning vazifasi ventilator ishlayotgan vaqtda ish g'ildiragida havo so'rilishining oldini olishdan iborat.

Ventilatorning markasi quyidagilarni: birinchi harflar ventilatorning sinfini (Π — markazdan qochma; $\Pi\Pi$ — markazdan qochma, chang), birinchi raqam — bosim H ko'effitsiyentini, oxirgi harf solishtirma aylanish tezligi n ni bildiradi. Masalan, $\Pi\Pi 7-40$ markasining ma'nosi quyidagichadir: markazdan qochma, chang, bosim ko'effitsiyenti $H=0,7$ va solishtirma tez aylanish $n=40$ ayl/min bo'lgan ventilator.

Yuqori unumli komplekt uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlardagi aspiratsiya qurilmalarida foydali ish ko'effitsiyenti yuqori bo'lgan ventilatorlar qo'llaniladi (40-rasm).

3-§. VENTILATORLARNING TARMOQDA BIR VAQTD A KETMA-KET ISHLASHI

Havo sarfini ko'paytirish maqsadida bitta tarmoqqa ikkita ventilatorni parallel ulanadi.

Ventilatorlar parallel ulanganida ularning havo-sarfi ortadi, bosim esa o'zgarmasdan qoladi:

$$\begin{aligned} Q_{B1} + Q_{B2} &= Q_{\text{tarmoq}} \\ H_{B1} - H_{B2} &= H_{\text{tarmoq}} \end{aligned}$$

bu yerda: Q_{B1} va Q_{B2} — birinchi va ikkinchi ventilatorlarning havo sarfi; Q_{tarmoq} — tarmoqdagi havo sarfi; H_{B1} va H_{B2} — birinchi va ikkinchi ventilatorning bosimi, tarmoqdagi bosim H_{tarmoq} ga teng.

Bitta tarmoqqa ventilatorlar ketma-ket ulanganida ularning bosimi ortadi, havo sarfi esa o'zgarmasdan qoladi:

$$\begin{aligned} H_{B1} + H_{B2} &= H_{\text{tarmoq}} \\ Q_{B1} - Q_{B2} &= Q_{\text{tarmoq}} \end{aligned}$$

bu yerda: H_{B1} va H_{B2} — birinchi va ikkinchi ventilatorning bosimi, H_{tarmoq} — tarmoq qarshiligi; Q_{B1} va Q_{B2} — birinchi va ikkinchi ventilatorning havo sarfi, tarmoqning havo sarfi Q_{tarmoq} ga teng.

Tekshirish uchun savollar

1. Radial va bo'ylama ventilatorlar qanday tuzilgan?
2. Kichik, o'rtacha va yuqori bosimli ventilatorlarga qaysi radial ventilatorlar kiradi?
3. Ventilatorning bosimi oshishiga qaysi parametrlar ta'sir qiladi?
4. Ventilatorlarning aerodinamik tavsiflari nima uchun kerak?
5. Ventilatorlarni tanlash tamoyili qanday?
6. Bir vaqtda va ketma-ket ishlaydigan ventilatorlar qaysi hollarda qo'llaniladi?
7. Chang ventilatorlarining qo'llanilish sohalarini ayting.
8. Bo'ylama ventilatorlarning afzalligini va ularning qo'llanilish sohalarini ayting.
9. Ventilatorlarning quvvati qaysi formuladan aniqlanadi?

VI BOB. VENTILATSIYA (ASPIRATSIYA) QURILMALARINI LOYIHALASH ASOSLARI

1-§. VENTILATSIYA QURILMALARINI LOYIHALASH ASOSLARI VA VENTILATSIYA TARMOQLARINING JOYLASHUVI

Ventilatsiya (aspiratsiya) qurilmalari texnologik jarayonlar sxemasi asosida, texnologik va transport uskunolari, bunker va siloslar, qabul qiluvchi va uzatuvchi uskunalarning binoda joylashuviga bog'liq holda loyihalalanadi.

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalaridagi havoni almashtirish qurilmalarini loyihalashda quyidagilar hisobga olinishi shart:

- korxonalarning texnologik me'yorlari;
- korxonalardagi texnologik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish qoidalari;
- korxonalardagi xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalari;
- binolarni loyihalashning yong'inga qarshi me'yorlari;
- sanoat korxonalarini loyihalashning sanitariya me'yorlari;
- loyihalashning qurilish me'yorlari va qoidalari.

Loyihalalanadigan aspiratsiya qurilmalari yuqori darajada samarador bo'lishi va quyidagilarni ta'minlashi shart:

- atrof-muhit ifloslanishidan saqlanishini;
- ish binolarida mehnatning me'yoriy sanitariya-gigiyenik sharoiti yaratilishini;
- hamma texnologik uskunalar va to'liq texnologik jarayonlar samarali ishlashini;

— aspiratsiya qurilmalarining yong'in va portlash jihatidan xavfsizligini;

— aspiratsiya qurilmalari ishonchli va tejimli ishlashini.

Loyihaga elevator, tegirmon, yorma yoki omixta yem korxonasidagi aspiratsiya qurilmasining hisobi va tushuntirish xati ilova qilinmog'i kerak.

49-rasm. Yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarda donni ko'chirish uchun qo'llaniladigan haydovchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
 1 — havo haydovchi kompressor; 2 — havo o'tkazgich; 3 — qabul qiluvchi uskuna;
 4 — shluзли zatvor; 5 — bunker; 6 — mahsulot o'tkazgich; 7 — bo'shatgich;
 8 — filtr; 9 — o'rtaча bosimli ventilator.



50-rasm. Yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarda unni ko'chirish uchun haydovchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
 1 — havo haydovchi mashina; 2 — havo o'tkazgich; 3 — qabul qiluvchi uskuna;
 4 — o'zioqar quvur; 5 — matoli chang tozalagich; 6 — mahsulot quvuri;
 7 — bo'lgich; 8 — aspiratsiya qurilmasi; 9 — bunkerlar.

Haydovchi pnevмотransport qurilmasining mahsulotni qabul qiluvchi joylarida ortiqcha bosim eng katta, mahsulotni bo'shatish joylarida esa eng kichik bo'ladi (47-rasm).

47-rasmda chiqindilarni tashishga mo'ljallangan haydovchi pnevмотransport qurilmasining prinsipial sxemasi ko'rsatilgan. Bunda kompressor yoki yuqori bosimli ventilator mahsulot quvuri 4 ga havoni uzatadi. Mahsulot o'tkazgich quvuriga bunkerdan 2 shlzli zatvor orqali mahsulot tushadi. Havo va mahsulotdan tashkil topgan



51-rasm. Un tashuvchi mashinadan unni bunkerlarga ko'chirish uchun haydovchi pnevмотransport qurilmasining sxemasi:
 1 — havo haydovchi kompressor; 2 — un bunkerlari; 3 — mahsulot quvuri;
 4 — bunkerlar; 5 — matoli chang tozalagich.

aralashma mahsulot quvuri orqali bo'shatgich 5 ga kelib tushadi va unda mahsulot havodan ajraladi. Ajralgan mahsulot shluqli (zatvor) orqali tashqariga chiqariladi. Changli havo esa siklon yoki filtr 6 da tozalanadi va tozalangan havo atmosferaga chiqarib tashlanadi.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevмотransport qurilmalarining ahamiyati, afzalliklari va kamchiliklari nimadan iborat?
2. Pnevмотransport qurilmalari qanday tasniflanadi?
3. Donni saqlash va qayta ishlash sanoatining qaysi korxonalarida pnevмотransport qurilmalaridan foydalanish mumkin?
4. So'ruvchi pnevмотransport qurilmalari qayerlarda qo'llaniladi?
5. Haydovchi pnevмотransport qurilmalarini qayerlarda ishlatish mumkin? Ularning afzallik va kamchiliklarini ayting.
6. Aralash pnevмотransport qurilmalari qayerlarda qo'llaniladi? Ularning afzallik va kamchiliklarini ayting.

VIII BOB. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING USKUNALARI

1-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING QISMLARI

Hamma pnevмотransport qurilmalari asosan quyidagi qismlardan tashkil topadi.

— har xil konstruksiyadagi qabul qiluvchi yoki yuklovchi uskunalar;

— mahsulot o'tkazuvchi quvurlar;

— mahsulotni (don, un, kepak, chiqindi va b.) havodan ajratish uchun bo'shatish qurilmasi;

— havo haydovchi mashinalar yoki ventilatorlar;

— havoni tozalash uchun chang ajratgichlar;

— havo quvurlari;

— aerodinamik shovqin so'ndirgichlar;

— kollektorli va birlashtiruvchi havo o'tkazgichlar;

— mahsulot va havo miqdorini o'lchovchi va rostlovchi moslamalar;

— pnevмотransport qurilmalari uzellarini avtomatlashtirish, signallashtirish, blokirovkalash va nazorat qilish vositalari (drosselli va berkituvchi zadviykalar, klapanlar, ishga tushiruvchi qurilmalar va b.).

Pnevмотransport qurilmalaridagi bu qismlarning aerodinamik qarshiligi kichik bo'lishi, ular zich, ishlatilishi oddiy va ishonchli bo'lishi shart.

2-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING QABUL QILUVCHI USKUNALARI


Pnevмотransпорт qurilmalarining qabul qiluvchi uskunalari har xil konstruksiyada bo'lishi mumkin, lekin ular mahsulotni havo bilan bir me'yorda kerakli miqdorda aralashtirishi va bu aeroaralashmani mahsulot quvuriga uzluksiz uzatishi kerak. Mahsulotni tashish uchun kerakli miqdoridagi havo qabul qiluvchi uskunaga qo'shimcha qarshiliksiz kirib turishi shart.

Mahsulot o'tkazgichning so'ruvchi va haydovchi quvurlariga mahsulotni uzatish uchun har xil qabul qiluvchi uskunalar mavjud (52, 53, 54, 55, 56, 57, 58-rasmlar). So'ruvchi pnevmotransport qurilmalari uchun vertikal yoki gorizontal qabul qiluvchi uskunalar qo'llaniladi. Bundan tashqari, jo'vali dastgohlardan, chiqit va boshqa mashinalar ichiga o'rnatilgan qabul qiluvchi uskunalar bor.

Haydovchi pnevmotransport qurilmalari uchun shluzli zatvor va ejektor turidagi qabul qiluvchi uskunalar qo'llaniladi. Tegirmon-

ning yanchish bo'limida, maydalangan don mahsulotlarini va yorma korxonasidagi mahsulotlarni tashish uchun «Soplo» turidagi qabul qiluvchi uskunalar ishlatiladi.

52-rasmda «Soplo» turidagi qabul qiluvchi uskuna keltirilgan. Mahsulot patrubok 2 orqali qabul qilgichning silindrsimon qismi 5 ga tushadi. Mahsulot silindrsimon korpus 5 va quvur 4 oralig'iga tushadi. Quvur 4 ning pastki qismi suyri bo'lgani uchun mahsulot va havo aralashmasining harakatiga qarshilik kam bo'ladi. Korpus 5 ning pastki qismiga olinadigan tub 6 o'rnatilgan. Idish tubi bilan quvur 4




52-rasm. «Soplo» turidagi qabul qiluvchi uskuna:

- 1 — klapan; 2 — qabul qiluvchi patrubok;
3 — manjet; 4 — quvur; 5 — silindrsimon korpus; 6 — olinadigan tub.

53-rasm. Uyumdan donni qabul qiluvchi uskuna:

1 — ichki quvur; 2 — tashqi quvur;
3 — yo'naltiruvchi qovurg'alar; 4 — teshiklari
katta g'alvirli konus; 5 — ichki quvurga
payvandlangan panjacha; 6 — rostlovchi bolt.




ning uchi o'rtasidagi oraliqni o'zgartirish mumkin. Quvur 4 orqali mahsulot belgilangan joyga havo yordamida uzatiladi.

53-rasmda uyumdan donni qabul qiluvchi uskuna keltirilgan. Don uyumi ichiga 300—400 mm chuqurlikda botirilgan soplo mahsulot quvuridagi siyraklanish tufayli donni donlar orasidagi bo'shliqdagi havo bilan birga so'rib oladi. Bir vaqtning o'zida soploga ichki va tashqi quvurlar orasidagi tirqish orqali atmosfera havosi donni topish uchun so'rib olinadi. So'riladigan havoning miqdori ichki quvur 1 va tashqi quvur 2 ni o'zaro haraklantirish orqali rostlanadi.


So'ruvchi pnevmotransport qurilmalarining gorizontaal mahsulot o'tkazuvchi quvuriga donador va changsimon mahsulotlarni qabul qilish uchun «Troynik» turidagi mahsulot qabul qiluvchi uskuna qo'llaniladi.

54-rasmda «Troynik» turidagi qabul qiluvchi uskuna keltirilgan. «Troynik» uskunasi soddaligi va aerodinamik qarshiligi kichikligi bilan



54-rasm. «Troynik» turidagi gorizontaal qabul qiluvchi uskuna:

1 — qabul qiluvchi patrubok; 2 — qabul qilgich; 3 — kollektor; 4 — to'siq.




55-rasm. Yuqori umumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlardagi pnevmotransport qurilmalari uchun Y2-БПО markali mahsulot qabul qiluvchi uskunalar:

a — Y2-БПО-7; *b* — Y2-БПО-12; 1 — qabul qiluvchi patrubok; 2 — yoʻnaltiruvchi patrubok; 3 — tirsak.

ajralib turadi. Mahsulot oʻtkazuvchi quvur toʻlib tiqilib qolmasligi uchun uskunaning gorizontal qismi toʻsiq 4 bilan ikki qismga ajratib qoʻyilgan. Toʻsiqning yuqori qismida mahsulot havo bilan harakatlanadi, pastki qismida esa mahsulotni qabul qiluvchi uskunadan mahsulot oʻtkazuvchi quvurga oʻtkazish uchun havo harakatlanadi.


Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida barabanli shluzli qabul qiluvchi uskuna eng koʻp qoʻllaniladi (56-rasm).

Bunkerdan tushayotgan mahsulot baraban 3 ning aylanishi natijasida barabandagi chuqurchalarni toʻldiradi.



56-rasm. Barabanli shluzli qabul qiluvchi uskuna:


1 — bunker; 2 — ortiqcha bosimni chiqarish uchun patrubok; 3 — chuqurchalari boʻlgan baraban; 4 — korpus; 5 — barabanning oʻqi; 6 — mahsulot quvuri.




57-rasm. Mahsulot qabul qiluvchi uskunali po'st ajratuvchi mashina:
1 — parrak; 2 — patrubok; 3 — uchlik.

Barabandagi yuqori bosimni chiqarish uchun patrubok 2 o'rnatilgan. Mahsulot quvur tarmog'iga uzatilishi uchun barabanli shluqli qabul qiluvchi uskunaning quvvati mahsulot o'tkazuvchi quvurning quvvatiga teng bo'lishi shart.

Mashinalarning ichiga o'rnatilgan mahsulot qabul qiluvchi uskunalarining har xil konstruksiyalari mavjud (57 va 58-rasmlar).



58-rasm. Pnevmatik qabul qiluvchi uskuna o'rnatilgan jo'vali dastgoh:
1 — organik shishadan tayyorlangan silindr;
2 — yuqorigi halqa; 3 — pnevmatik qabul qilgichning vertikal quvuri; 4 — pastki halqa dastasi; 6 — bunker; 7 — qabul qilgich idishi; 8 — qabul qiluvchi quvur.



59-rasm. Ichiga siklon o'rnatilgan don ajratgich:


1 — yuqorigi konus; 2 — silindr; 3 — kron-shteyn; 4 — shamirli tirsak; 5 — qabul qiluvchi moslama; 6 — qaytaruvchi to'siq; 7 — pastki konus; 8 — changni chiqarish uchun patrübok; 9 — chang ajratgich; 10 — havoni chiqarish uchun patrübok.

3-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING MAHSULOT AJRATGICHLARI

Pnevмотransport qurilmalarida tashiladigan mahsulot va havoni bir-biridan ajratish uchun har xil ajratgichlar: hajmiy ajratgichlar (cho'ktirish kameralari), markazdan

qochma ajratgichlar (siklonlar) va pnevmoseparatorlar (59, 60, 61, 62, 63 va 64-rasmlar).

Kema (barja) lardan donni tushirish uchun ishlatiladigan pnevmotransport qurilmalarida hajmiy ajratgichlar qo'llaniladi. Tegirmon va yorma korxonalaridagi pnevmotransport qurilmalarida markazdan



60-rasm. YU turidagi mahsulot ajratgich.

qochma ajratgichlar hamda pnevmoseparatorlar qo'llaniladi. Tegirmonning sex ichidagi pnevmotransport qurilmasini loyihalashda mahsulot ajratgichlar sifatida quyidagilarni o'rnatish tavsiya qilinadi:

— donni tashishda asosan pnevmoseparatorlar, buning iloj bo'lmaganda esa faqat UPk turidagi markazdan qochma ajratgichlar;


— maydalangan don mahsulotlari tashishida asosan UП va YU-38 turidagi markazdan qochma ajratgichlar;

— chiqindilarni tashishida UП va UPk turidagi markazdan qochma ajratgichlar.

Ishlab turgan un tegirmonlarini rekonstruksiya qilishda bino qavatlarining balandligi yetarli bo'lmasa, maydalangan mahsulotlar uchun UPk xilidagi ajratgichlarni o'rnatishga ruxsat etiladi.


59-rasmda hajmiy ajratgichning tuzilish sxemasi keltirilgan. Don silindr 2 ning ichki yuzasiga tekkan holda kiradi. Havoning tezligi keskin pasayishi va yoʻnalishi oʻzgarishi natijasida don silindrnning pastki konusi 7 ga tushadi va shlzli zatvor yordamida tashqariga chiqariladi. Changli havo ikkita teshik orqali chang ajratgich 9 ga kiradi. Ajratilgan chang chiqaruvchi patrubok 8 orqali havo esa patrubok 10 orqali tashqariga chiqadi.

Hajmiy ajratgichlar foydali ish koeffitsiyenti (FIK) yuqoriligi, kichikligi ishlatishda oddiyligi va aerodinamik qarshiligi bilan ajralib turadi. Massasi, oʻlchamlarining kattaligi va qimmatligi bunday ajratkichlardan kam foydalaniladi.




61-rasm. Y2-BIP markali mahsulot ajratgich sikloni:

1 — drosselli tutkich; 2 — kirish patrubogi; 3 — korpus; 4 — kuzatish uchun organik shishadan qilingan silindrsimon quvur.



62-rasm. Y2-BPO markali mahsulot ajratgich sxemasi:


1 — nova; 2 — o'zgaruvchi yuza; 3 — kirish patrubogi; 4 — korpus; 5 — chiqish teshigi; 6 — to'siq; 7 — sath signalizatori.



63-rasm. P3-BCD
pnevmostparatorining tuzilishi:


1 — konussimon bunker; 2 — sath signalizatori; 3 — korpus; 4 — darcha; 5 — qabul qiluvchi moslama; 6 — qabul qiluvchi moslamaning bosh qismi; 7 — voronkalar; 8 — changli havo chiqaruvchi quvur; 9 — drosselli to'siq; 10 — ustun.

64-rasm. РЦИР-3,9-9 markali mahsulot ajratgich — filtr (РЦИР-1,7-4 markali mahsulot ajratgichning o'lchamlari berilgan): 1 — tozalangan havo kamerasi; 2 — korpus; 3 — konussimon to'plagich; 4 — pnevmatik to'qmoq; 5 — boshqarish asbobi; 6 — shamolatish klapani.



Markazdan qochma ajratgichlar so'ruvchi va haydovchi pnevmotransport qurilmalarida yaxshi ishlaydi. Ularning ЦР, ЦРк va УЦ-38 markali turlari mavjud bo'lib, ular asosan so'ruvchi pnevmotransport qurilmalarida ko'p qo'llaniladi. ЦРк ajratgichi ЦР ajratgichiga nisbatan kalta va diametri kichik bo'ladi. УЦ ajratgichining tuzilish sxemasi 60-rasmda keltirilgan.

Tegirmon va yorma korxonalarining donni tozalash va po'st ajratish bo'limlarida pnevmoseparatorlar asosan dondan aerodinamik xususiyati bilan farq qiluvchi yengil chiqindilarni (qobiq, qipiq va b.) va donni havodan ajratish uchun ishlatiladi (65-rasm). РЗ-БСД markali pnevmoseparatorlar aspirator va mahsulot ajratgich vazifasini bajaradi.



65-rasm. РЗ-БСД pnevmoseparatorining ishlash sxemasi:


1 — yon patrubok; 2 — yo'naltiruvchi nova; 3 — voronka; 4 — bo'luvchi konus; 5 — cho'ktirish kamerasi; 6 — tashqi aylanma kanal; 7 — silindr; 8 — pnevmoseparatorning aylanma kanali; 9 — markaziy patrubok; 10 — chiqarish konusi; 11 — to'siq; 12 — shluqli o'tkazgich.

4-§. CHANGNI TUTIB QOLUVCHI USKUNALAR

Pnevмотransпорт қurilmalaridagi pnevmoseparator va mahsulot ajratgichlarda havodan don ajratib olingandan keyin changli havoni tozalash uchun 4БЦШ, УП markadagi batareyali siklonlar va РЦИ markali filtrlar qo'llaniladi. Pnevмотransпорт qurilmalari uchun batareyali siklonlar havo sarfiga ko'ra tanlanadi.

5-§. MAHSULOT VA HAVO O'TKAZISH QUUVURLARI

Mahsulot quvurlari mahsulot bilan havo aralashmasini qabul qilingan joydan bo'shatish joyiga. Havo quvurlari esa mahsulot ajratgichdan chiqqan changli havoni atmosferaga chiqarib tashlanadigan joyga. Mahsulot quvuri mustahkam, chidamli, zich va ichki yuzasi silliq bo'lishi kerak.



66-rasm. Pnevмотransпорт sxemasi:

a — un tortish bo'limi; *b* — don tozalovchi bo'lim; 1 — qabul qilgich, 2, 5 — o'lchash teshiklari, 3 — mahsulot o'tkazgich, 4 — organik shisha patrubok, 6 — mufta, 7 — shlyuzli zatvor, 8 — siklon, 9 — pnevmoseparator, 10 — ichiga qabul qilgichlar o'rnatilgan mashinalar (chiqindi mashinasi, jo'vali dastgoh).


Mahsulot quvurlarining tarmoqlari to'g'ri qismlardan va tirsaklardan tashkil topadi.

Tegirmon va yorma korxonalarining sex ichidagi pnevmotransport qurilmalarining mahsulot quvurlari bino qavatlarining balandligi bo'yicha alohida-alohida yaxlit bo'ladi (66-rasm).

Mahsulot quvuri sifatida asosan don uchun devorining qalinligi 4 mm, donni qayta ishlash mahsulotlari uchun esa 2 mm dan yupqa bo'lmagan po'lat quvurlar qo'llaniladi. Mahsulot o'tkazgichning yuqori qismi tirsaklar yordamida bo'shatgichga yoki pnevmoseparatorga tutashiriladi. Tirsaklarning dumaloqlanish radiuslari 1500 va 2000 mm qilib olinadi. Ba'zi hollarda tirsak radiusini 1000 mm qilib olish mumkin.

Pnevmotransport qurilmalarining ishlashini kuzatish uchun mahsulot o'tkazgichlarga organik shishadan tayyorlangan silindrsimon qarash darchalari o'rnatiladi. Mahsulot quvurlarini ulashga qo'yiladigan asosiy talab ular zich (germetik) va markazlashgan bo'lishi shart.

Havo pnevmotransport qurilmasining bo'shatkichlaridan aspiratsiya qismining oxirigacha harakatlanishi uchun kollektorli va oddiy (havoni almashtiruvchi) havo quvurlari qo'llaniladi. Kollektor tarmoqlantirilgan havo quvuri bo'lib, bo'shatgichlardan chiqqon changli havoni changish tutib qoluvchi qurilmaga uzatish uchun xizmat qiladi (67-rasm).



67-rasm. Bo'shatgich-siklonlardan keyingi havo kollektori:

a — alohida qismlardan yig'ilg'an kollektor; b, d — yaxlit kollektorlar;

1 — bo'shatgich-siklon; 2 — spiralsimon qism; 3 — kollektor qismi.

6-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARIDAGI HAVO HAYDOVCHI VA SO'RVCHI MASHINALARNING TURLARI


Havo haydovchi pnevmotransport qurilmasida havo harakatlanishi uchun mashinalar bosimlar farqini hosil qilish va havo bilan birga mahsulotni qabul qilish joyidan bo'shatish joyiga keltirish uchun xizmat qiladi.

Don va maydalangan don mahsulotlarini tashish uchun pnevmotransport qurilmasida havo haydovchi mashinalarning ikki turi: hajmiy va markazdan qochma mashinalardan foydalaniladi.

Pnevmotransport qurilmasida loyihalash va ishlatishda shuni hisobga olish kerakki, pnevmotransport tarmoqlarining qarshiligi kamayishi bu mashinalarning quvvatini oshishiga, katta miqdorda havo harakatlanishi esa mahsulot quvuri va havo quvurida havoning tezligi ortishiga sabab bo'ladi, natijada mashinaning elektr energiyasi sarfi ancha ko'payadi.


Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida havo haydovchi mashinasining belgilanishiga bog'liq holda markazdan qochma ventilatorlar (B-18 markali № 8 va № 9), markazdan qochma turbobavo haydovchi mashinalar (TB), vintli havo haydagichlar (P3-BHB), shesternali ikki rotorli kompressorlar (3AΦ) va boshqa konstruksiyadagi mashinalar qo'llanilishi mumkin.

3AΦ turidagi shesternali ikki rotorli kompressorlar yuqori unumli uskunalar bilan jihozlangan tegirmonlarda don va maydalangan don mahsulotlarini pnevmatik tashish tizimlarida



68-rasm. 3AΦ turidagi shesternali ikki rotorli kompressor:

1 — filtr; 2 — saqllovchi klapan; 3 — shovqin so'ndirgich; 4 — elektr dvigateli;
5 — tasmali uzatma; 6 — kompressor; 7 — patrubok; 8 — xafvsizlik to'sig'i; 9 —
havo quvuri; 10 — manometr; 11 — dempfer; 12 — rama; 13 — vibroizolator.



69-rasm. UB-18 turidagi yuqori bosimli markazdan qochma ventilator:
 1 — qobiq; 2 — so'ruvchi quti; 3 — ish g'ildiragi; 4 — podshipnikli qism;
 5 — stanina; 6 — so'ruvchi patrubok.

ishlatiladi. Ular qo'zg'almas bo'lib atrof havosining harorati minus 10 dan plus 35° C gacha bo'lganida ishonchli ishlaydi. 3AΦ kompressorlari quyidagi afzalliklarga ega: havo uzatish diapazoni katta; massasi kichik; kam tebranadi; ishonchliligi yuqori (68-rasm).

Sex ichidagi pnevmotransport qurilmasida qo'llaniladigan UB-18 markali markazdan qochma ventilatorning kamchiligi quyidagilardan iborat: ishlaganda tebranadi; ish g'ildiragining aylanmish tezligi kattaligi sababli kuchli shovqin hosil bo'ladi; ventilatorning foydali ish ko'effitsiyenti juda kichik — $\eta = 0,64$ (69-rasm).

UB-18 ventilatorlariga nisbatan foydali ish ko'effitsiyenti katta bo'lgan ($\eta = 0,75$) U10-28 markali takomillashtirilgan ventilatorlar ishlab chiqarilmoqda. Ular hosil qiladigan havo bosimi 1000 Pa dan 7500 Pa gacha.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevмотransport qurilmalarining asosiy qismlari nimalardan tashkil topgan?
2. Pnevmatik qabul qiluvchi uskunalarga asosan qanday talablar qo'yiladi?
3. So'ruvchi pnevmotransport qurilmalarida pnevmatik qabul qilgichlarning qaysi turlari ishlatiladi?
4. Haydovchi pnevmotransport qurilmalarida to'ldiruvchi va qabul qiluvchi uskunalarning qaysi turlari qo'llaniladi?
5. Pnevмотransport qurilmalaridagi mahsulot ajratgichlar qanday belgilanadi va tasniflanadi?

6. Pnevmostparatorlarning tuzilishi va ishlash asosi qanday?
7. Pnevmosttransport qurilmalarida mahsulot quvurlarining qanday turlari qo'llaniladi?
8. Pnevmosttransport qurilmalarida qanday havo quvurlaridan foydalaniladi?
9. Pnevmosttransport qurilmalarida qaysi havo haydovchi mashinalar qo'llaniladi? Ularning ishlash asosi qanday?
10. Pnevmosttransport qurilmalarida chang tutgichlarning qaysi turlari ishlatiladi?

IX BOB. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI LOYIHALASH, HISOBLASH VA USKUNALARNI TANLASH ASOSLARI

1-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI LOYIHALASH ASOSLARI

Donni saqlash va qayta ishlash korxonalaridagi pnevmotransport qurilmalarini loyihalashda shuni hisobga olish kerakki, bu qurilmalarda tashilgan havo texnologik maqsadlarda ham qo'llaniladi. Natijada texnologik uskunalar (chiqindilardan tozalash, donning yuzasiga ishlov berish uskunlari) sonini qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Texnologik sxemalardagi bu o'zgarishlar qo'shimcha uskunalar o'rnatish uchun joy bo'shatish imkoniyatini beradi. Bu esa korxonaning unumdorligini oshirishni ta'minlaydi.


Tegirmonning donni tozalash va maydalash bo'limlaridagi texnologik jarayonlarning hamma bosqichlarida pnevmotransport qurilmalari qo'llaniladi. Asosan maydalash bo'limida tarmoqlangan so'ruvchi pnevmotransport qurilmalari qo'llaniladi (70-rasm). Pnevmosttransport qurilmalaridan yorma (arpa, suli, tariq) korxonalarida va omixta yem korxonasining ba'zi texnologik jarayonlarida foydalanish mumkin.

Don mahsulotlari ishlab chiqaradigan korxonalarda pnevmotransport qurilmalarini loyihalash va hisoblash uchun quyidagilar bo'lishi shart:

- donni un tortishga tayyorlash va un tortish (yorma olish) texnologik sxemalari;
- tashiladigan mahsulotlarning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot;
- texnologik uskunalar o'rnatiladigan bino qavatlarining bosh plani va qirqimlari;
- mahsulot harakatining kommunikatsiyasi va un tortishning miqdoriy muvozanati.

70-rasm. Tegirmonning donni maydalash bo'limida texnologik va pnevмотransport uskunalarining qavatlar bo'yicha joylashish sxemasi:

1 — pnevмоqabul qilgich; 2 — o'zioqar nov; 3 — jo'vali dastgoh; 4 — chang ajratgich-siklon; 5 — havo bilan ishlaydigan g'alvirli mashina; 6 — mahsulot quvuri; 7 — rassev; 8 — shluzli o'tkazgich; 9 — bo'shatgich; 10 — havo o'tkazgich quvuri; 11 — filtr; 12 — ventilator.



Un tortishning miqdoriy muvozanati bo'yicha har bir pnevмотransport quvuriga tushadigan yuklama aniqlanadi.

Pnevмотransport qurilmalarini quyidagi tartibda loyhalash tavsiya qilinadi:

1. Pnevмотransport qurilmasining sxemasi tanlanadi va asosiy uskunalar (qabul qilgichlar, mahsulot ajratgichlar, chang ajratgichlar, havo haydovchi mashinalar)ning turi va tarkibi aniqlanadi.

2. Chizmalarda mahsulotni uzatish va chiqarish nuqtalari belgilanadi. Mahsulot quvurlarining joylashuvi va trassalarning uzunligi aniqlanadi.

3. Tarmoqlangan mahsulot quvurlarining har biri uchun un tortishning miqdoriy muvozanati bo'yicha hisoblangan yuklama aniqlanadi.

4. Mahsulot quvurlarining hisoblangan quvvati, joylashuvi va uzunligi, tashiladigan mahsulotning turi bo'yicha havoning ish tezligi va aralashmaning miqdori aniqlanadi. Bundan tashqari, havo sarfi va mahsulot quvurining diametri aniqlanadi.

5. Mahsulot quvurlari alohida tarmoqlarga joylashtiriladi va shu pnevмотransport qurilmasining chizmalariga chizib kiritiladi.

6. Pnevмотarmoqlar joylashtirilgandan keyin tarmoqning tekislikdagi sxemasi chiziladi. Sxemada mahsulot quvurlari qalin qora

chiziq bilan, havo quvurlari hamda ularning hamma burilish joylari va shakldor detallari shtrix-punktir chiziq bilan tasvirlanadi.

7. Pnevmotarmoq hisoblanadi va tanlangan uskunalarining parametrlari aniqlanadi.

8. Hisoblash materiallari va chizmalar asosida pnevmotarmoqning montaj sxemasi tayyorlanadi.

2-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI HISOBLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblashda havoni almashtirish qurilmalarini hisoblashdagi aerodinamikaning asosiy qonunlaridan foydalaniladi.

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblashda mahsulot quvurida aeroaralashmalar harakatlanganda yo'qotilgan bosim toza havo va mahsulot havo oqimida harakatlanganda jami yo'qotilgan bosim, deb qaraladi. Bunda mahsulot quvurining hisoblangan yuklamasi va havoning tezligi, mahsulot va havo quvurlarining diametri, qurilmaning qismlarida yo'qotilgan bosim, shluzli zatvorlar va bo'shatgich siklonlarning o'lchamlari, havo haydovchi mashinaning bosimi va elektr dvigatelinining quvvati aniqlanadi.

Pnevmotransport qurilmalarini hisoblash uchun quyidagi boshlang'ich ma'lumotlar bo'lishi kerak:

- oddiy pnevmotransport uchun ish unumdorligi yoki tarmoqlangan pnevmotransport qurilmasi uchun mahsulot quvurlarining yuklamasi;

- mahsulot quvurlari vertikal va gorizontal qismlarining uzunligi va ularda shakldor detallarining mavjudligi;

- tirsaklarning radiusi va burchagi;

- tashiladigan mahsulotlarning nomlari va miqdoriy muvozanat sarfi;

- mahsulot qabul qilgichning turlari;

- mahsulot quvurlarida havo oqimining tashish tezligi;

- aralashmaning massa bo'yicha miqdoriy koeffitsiyenti.

3-§. SO'RUVCHI PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINI HISOBLASH

Pnevmotransport qurilmasining unumdorligi, aeroaralashmaning miqdori va tashish tezligi pnevmotransport qurilmasining o'lchamlari, energiya sarfi va ishonchli ishlash belgilaydi.

Bitta mahsulot quvuri bo'lgan oddiy pnevmotransport qurilmasi-
sining unumdorligi (kg/soat) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$G = a \frac{1000 - G_{\text{vaf}}}{24},$$

bu yerda: a — texnologik jarayonning xususiyatlarini hisobga
oladigan notekislik (zaxira) koeffitsiyenti; 24 — ish soatlari soni,
sutka; G_{vaf} — korxonaning unumdorligi, t/sutka.

Tegirmonning yanchish bo'limidagi tarmoqlangan pnevmotrans-
port qurilmasi mahsulot quvurlarining hisoblangan yuklamasi
(unumdorligi) un tortishning miqdoriy muvozanatidan (kg/soat)
aniqlanadi:

$$G = a \cdot G_m, \quad (2)$$

bu yerda: G_m — mahsulot quvurining miqdoriy muvozanat bo'yi-
cha yuklamasi.

Hisoblangan unumdorlikni (yuklamani) aniqlashda notekislik
(zaxira) koeffitsiyenti tegirmonning donni tozalash bo'limi uchun
 $a = 1,2$, yanchish bo'limi uchun $a = 1,15$ qilib olinadi.

Pnevmotransport qurilmalari katta ortiqcha yuklanishga dosh
bermaydi. Shuning uchun zaxira koeffitsiyenti ish vaqtida mahsulot
quvurlarining ortiqcha yuklanishi mumkinligini ma'lum darajada
hisobga oladi (7-jadval).

Mahsulot quvurlarining uzunligi tirsak va boshqa shakldor
qismlarning uzunligini hisobga olgan holda loyiha chizmalaridan
aniqlanadi. Mahsulotning ko'tarilish balandligini ta'minlagichdan
mahsulot ajratgichgacha vertikal bo'yicha o'lchab aniqlanadi.

Mahsulot o'tkazgichdagi havo oqimining harakatlanish tezligi
pnevmotransport qurilmalari ishining asosiy ko'rsatkichidir. Havo
oqimining tezligi oshishi natijasida qurilmaning talab qiladigan
quvvati ortadi, tashiladigan mahsulot maydalanadi, mahsulot quvuri,
ajratgich, pnevmoseparatorning yeyilishi tezlashadi va uskunalarning
ishlash samaradorligi kamayadi. Shu bois mahsulotni tashishda havo
oqimining tezligi mumkin qadar past bo'lishi kerak. Ammo pnev-
motransport qurilmasining havo oqimining chekli joiz tezligi
mahsulot o'tkazgichda mahsulot tiqilib qolishiga olib kelishi
mumkin. Ilmiy izlanishlar natijasida har xil mahsulotlarni tashish
uchun havo oqimining eng maqbul tezliklari aniqlangan (7-jadval).
Mahsulot o'tkazgichda havo oqimining hisobiy tezligi quyidagi
formuladan yoki 7-jadvaldan aniqlanadi:

$$v_h = K_z(10,5 + 0,57 \cdot v_k), \quad (3)$$

bu yerda: K_z — pnevmotransport qurilmasidagi yuklamaning odatdagi o'zgarishlarida mahsulot barqaror tashilishini ta'minlovchi zaxira koeffitsiyenti; v_k — mahsulotlarning ko'tarilish tezligi, m/s.

Havo bilan mahsulotning muallaq holatdagi aralashmasi aeroaralashma hosil qiladi.

Aeroaralashmaning massa bo'yicha miqdoriy koeffitsiyenti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\mu = \frac{G}{\rho_h Q_h}, \quad (4)$$

bu yerda: G — mahsulot o'tkazgichga vaqt birligi ichida tushgan mahsulot miqdori; Q_h — mahsulot o'tkazgichga vaqt birligi ichida kirgan havo miqdori; ρ_h — mahsulot o'tkazgichga kirgan havoning zichligi.

Mahsulotlarni vaqt birligi ichida tashish uchun kerakli havo miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q_h = 3600 \cdot F \cdot v_h, \quad (5)$$

bu yerda: F — mahsulot o'tkazgichning yuzi, m^2 yoki havoning standart zichligi $\rho_a = 1,2 \text{ kg/m}^3$ qilib olinib, quyidagi formuladan havo sarfi aniqlanadi:

$$Q_h = \frac{G}{1,2 \cdot \mu}. \quad (6)$$

7-jadval

Mahsulotlarning ko'tarilish tezligi va boshqa tavsiflari

Tartib raqami	Mahsulot	O'rta ko'tarilish tezligi, v_k , m/s	Zaxira (notekislik) koeffitsiyenti	Mahsulot o'tkazgichdagi havoning hisoblangan tezligi, m/s
1	Bug'doy doni	9,8	1,5	24,0
2	Don chiqindilari	6,0	1,5	21,0
3	Bug'doy uni:			
	oliy nav birinchi nav ikikinci nav	1,0	1,8	20,0
4	Bug'doy kepagi	1,2	1,8	20,0
5	Manna yormasi	1,3	1,8	20,0

6	Yormalash tizimlari:			
	I	5,5	1,5	21,0
	II	3,8	1,7	21,0
	III	3,0	1,7	21,0
	IV	2,0	1,7	20,0
	V—VI	2,0	1,5	18,0
7	Saralash mashinalari va 1...3 yanchish			
8	tizimlari	1,8	1,7	20,0
	1...3 qayroqlash tizimlari	3,0	1,7	21,0
9	Qolgani un tortish; qayroqlash			
	tizimlari; yanchish mashinalarining	1,6	1,5	17,0
	o'tishi, filtr chiqitlari			
10	Yirik oqshoqlar	4,0	1,5	19,0
11	Havo bilan ishlovchi birinchi sifatli			
	yormachalarni boyitadigan g'alvirli			
	mashinachiqqan qoldiq, mayda va			
	o'racha oqshoqlar			
	(I...III yor.s. va 1...2 q.s.)	3,0	1,5	19,0
12	Tariq	8,3	1,5	23,0
	Tariqni oqlash mahsulotlari,			
13	silliqlangan tariq	7,0	1,5	22,0
14	Yembop maydalangan tariq	4,5	1,5	20,5
15	Tariq uni	1,5	1,5	17,0
16	Tariq po'chog'i	2,0	1,5	17,0
17	Oddiy suli	7,0	1,5	22,0
18	Sulini oqlash mahsulotlari	6,0	1,5	21,0
19	Bug'lanmagan suli yormasi	6,5	1,5	21,0
20	Yembop maydalangan suli	5,5	1,5	21,0
21	Suli uni va po'chog'i	2,0	1,5	17,0
22	Oddiy arpa	9,0	1,5	23,0
23	Po'chog'i olingan arpa	8,0	1,5	23,0
24	3-silliqlash tizimidan keyingi mahsulot	7,5	1,5	22,0
25	Arpa yormasi:			
	№ 1...2	7,5	1,5	22,0
	№ 3...4	7,2	1,5	22,0
	№ 5	6,0	1,5	21,0
26	Arpa po'chog'i	1,8	1,5	17,0
27	Makkajo'xori doni	11,5	1,5	26,0
28	1-maydalash tizimidan keyingi			
	mahsulot	6,2	1,5	21,0
29	Makkajo'xori yormasi:			
	№ 1...2	6,0	1,5	21,0
	№ 3...5	5,5	1,5	21,0
30	Makkajo'xori kepagi	4,0	1,5	19,0
31	Makkajo'xori uni	2,5	1,5	18,0
32	2-oqlash tizimidan keyingi bug'doy	8,0	1,5	23,0
33	Qattiq bug'doy yormasi:			
	№ 1...2	7,5	1,5	22,0
	№ 3...4	6,0	1,5	21,0
	№ 5	5,5	1,5	21,0

Pnevmatik qurilmalarni hisoblashda mahsulotlarni tashish uchun massa bo'yicha miqdor koeffitsiyenti quyidagicha qabul qilinadi:

- chiqindilar uchun — $\mu \leq 1$ (0,6...1,0);
- donni kemadan tushirishda — $\mu = 25...30$;
- tegirmon va yorma korxonalari uchun — $\mu = 3,0...6,0$.

Mahsulot quvurining diametri havo sarfi va havoning hisoblangan tezligiga qarab 16-ilovadan aniqlanadi. Aniqlangan ko'rsatkich eng yaqin standart diametrigacha yaxlitlanadi, keyin havo sarfining uzil-kesil hisoblangan ko'rsatkichi aniqlanadi va massa bo'yicha miqdor koeffitsiyenti qayta hisoblanadi.

4-§. PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING QISMLARIDA YO'QOTILGAN BOSIMNI ANIQLASH

Pnevмотransport qurilmasidagi yo'qotilgan umumiy bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_u = H_{p,q} + H_{v,q}, \quad (7)$$

bu yerda: $H_{p,q}$ — havo va mahsulot aralashmasining pnevmotransportdagi harakati davomida yo'qotilgan bosim; $H_{v,q}$ — pnevmotransport qurilmasining ventilatsiya qismida yo'qotilgan bosim.

Loyihalash ma'lumotlaridan farq qilishi mumkinligini hisobga olgan holda, hisoblangan yo'qotilgan bosim 10 % ko'proq qilib olinadi: $H_{his} = 1,1 \cdot H_{y,q}$.

Pnevмотransport qurilmasida yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{p,q} = H_m + H_{q,u} + \Sigma H_m + H_{i,i} + H_{i,g} + H_{gir} + H_k + H_{b,s} + H_{q,u}, \quad (8)$$

bu yerda: H_m — qabul qiluvchi uskuna bilan tutashgan mashinada yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{q,u}$ — qabul qiluvchi uskunada yo'qotilgan bosim, Pa; ΣH_m — mahsulotga shig'ov (tezlashtirish) berish va tirsakdan keyin havoning tezligini tiklash uchun yo'qotilgan bosimlar yig'indisi, Pa; $H_{i,v}$, $H_{i,g}$ — mahsulot o'tkazgich quvurining vertikal va gorizontaal to'g'ri qismlarida aeroaralashmaning harakati natijasida ishqalanish uchun yo'qotilgan bosimlar yig'indisi, Pa; H_{tir} — tirsaklarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisi, Pa; H_k — mahsulotni vertikal ko'tarish uchun yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{s,a}$ — bo'shatgich-siklonlarda yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{q,u}$ — qisuvchi uskunada yo'qotilgan bosim, Pa.

Mashinalarda yo'qotilgan bosim, H_m 16-ilovadan aniqlanadi. Pnevмотransportning qabul qiluvchi uskunasi yo'qotilgan bosim $H_{q,u}$ ning turiga bog'liq holda quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{q.u.} = \xi_{q.u.} \cdot \rho_h \frac{v_{q.u.}^2}{2} = \xi_{q.u.} \cdot H_d, \quad (9)$$

bu yerda $\xi_{q.u.}$ — pnevmoqabul qiluvchi uskunaning turiga bog'liq bo'lgan qarshilik koeffitsiyenti (8-jadval); ρ_h — havoning zichligi, kg/m^3 ; $v_{q.u.}$ — pnevmoqabul qiluvchi uskunadagi havoning tezligi, m/s ; H_d — dinamik bosim, Pa; qarshilik koeffitsiyentining qiymati quyidagicha qabul qilinadi.

8-jadval

Pnevmatik qabul qiluvchi uskunalarining qarshilik koeffitsiyenti

Artib №	Pnevmoqabul qiluvchi uskuna turi	$\xi_{q.u.}$
1.	«Soplo»	0,7
2.	«Troynik»	1,5
3.	Jo'vali dastgohga o'rnatilgan uskuna	0,7
4.	Vertikal mahsulot quvuridagi don uskunasi	1,5

Pnevmoqabul qiluvchi uskunadagi havoning tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$v_{q.u.} = \frac{v_h \cdot F}{F_{q.u.}}, \quad (10)$$

bu yerda: v_h — havoning tezligi, m/s ; F — mahsulot quvurining diametri, m^2 ; $F_{q.u.}$ — qabul qiluvchi uskunaning diametri, m^2 .

Mahsulotni tezlashtirish uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\Sigma H_m + H_{k.t.} + \Sigma H_{tir.m.}; \quad (11)$$

a) pnevmo qabul qiluvchi uskunadan keyin

$$H_{q.t.} = iG; \quad (12)$$

b) tirsakdan keyin

$$\begin{aligned} H_{tir.t.} &= \Delta u \cdot iG; \\ \Sigma H_{tir} &= iG + \Delta y \cdot iG = (1 + \Delta y) iG, \end{aligned} \quad (13)$$

bu yerda: i — 1 tonna mahsulotni 1 soatda tezlashtirish uchun yo'qotilgan bosim, Pa (16-ildovadan aniqlanadi); G — pnevmotransport qurilmasining hisoblangan unumdorligi, t/soat ; Δy — tirsakning markaziy burchagiga tirsak radiusining mahsulot quvuri diametriga nisbatiga va tirsakdan keyingi to'g'ri quvur qismining uzunligiga bog'liq bo'lgan koeffitsiyent, 9-jadvaldan aniqlanadi.

i ning qiymatini aniqlashda ko'chiriladigan mahsulotlarni «dag'al» yoki «yumshoq» mahsulotga taalluqliligi aniqlanadi (16-ilova).

«Dag'al» mahsulotlarga quyidagilar kiradi: I, II, III va IV — yormalash tizmalaridan, 1, 2 va 3-un tortish tizmalaridan, 1 va 2-silliqlash tizimlardan I va II chiqindi hamda yirik yormalar tizimlaridan chiqqan un tortish mahsulotlar. «Yumshoq» mahsulotlarga tortishning qolgan mahsulotlari, tayyor mahsulotlar, yembop un, kepek va makkajo'xori murtagi kiradi.

9-jadval

Yo'qotilgan bosimning koeffitsiyenti Δy

Mahsulot quvuri diametrining tirsak radiusiga nisbati, r/d_{ichki}	Tirsakning markaziy burchagi, grad	Tirsakdan keyingi qismning uzunligiga bog'liq bo'lgan Δy koeffitsiyentning qiymati			
		1,0 m	2,0 m	3,0 m	4,0 va bundan ortiq
2...4	15...30	0,075	0,136	0,14	0,18
	31...60	0,14	0,25	0,29	0,36
	61...75	0,19	0,33	0,38	0,48
	76...90	0,24	0,42	0,48	0,60
5...9	15...30	0,06	0,11	0,12	0,15
	31...60	0,12	0,21	0,24	0,30
	61...75	0,16	0,28	0,32	0,40
	76...90	0,20	0,35	0,40	0,50
10 ...12	15...30	0,05	0,08	0,10	0,12
	31...60	0,10	0,17	0,19	0,24
	61...75	0,13	0,22	0,25	0,32
	76...90	0,16	0,28	0,32	0,40

Mahsulot quvurining vertikal va gorizonttal to'g'ri qismlarida aeroaralashma harakatlanishi natijasida ishqalanish uchun yo'qotilgan bosimlar quyidagi formuladan aniqlanadi:

a) vertikal qism uchun

$$H_{i.v.} = H_{t.h.} (1 + K_v \cdot \mu); \quad (14)$$

b) gorizonttal qism uchun

$$H_{i.g.} = H_{t.h.} \cdot (1 + K_g \cdot \mu); \quad (15)$$

bu yerda: $H_{t.h.}$ — mahsulot quvurida toza havo harakatlanganda ishqalanish uchun yo'qotilgan bosim, Pa; K_v , K_g — mahsulot quvurida mahsulot harakatlanishiga qarshilik koeffitsiyentlari (16-ilovada mahsulotning «dag'al» yoki «yumshoq» turga bog'liq holda aniqlanadi).

Mahsulot quvurida toza havo harakatlanganda ishqalanishga yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{t.h.} = R \cdot l, \quad (16)$$

bu yerda: R — 1 m uzunlikdagi mahsulot quvurida toza havo ishqalanishidan yo'qotilgan bosim, Pa (16-ilovadan olinadi); l — mahsulot quvurining uzunligi, m.

Mahsulot quvurining tirsaklarida yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{tir} = H_{tir.a} \cdot (1 + K_{tir} \cdot \mu), \quad (17)$$

bu yerda: $H_{tir.t.}$ — tirsakda toza havo harakatlanganda yo'qotilgan bosim, Pa (10-jadval);

K_{tir} — tirsakda yo'qotilgan bosim koeffitsiyenti (16-ilovadan aniqlanadi).

10-jadval

Toza havo harakatlanganda tirsakda yo'qotilgan bosim
(α — tirsakning burchagi, $\alpha = 75...90^\circ$)

Mahsulot quvurida havoning tezligi v_h , m/s	Tirsakning radiusi, r , mm	Mahsulot quvurining ichki diametri D , mm						
		56...66	72...81	85...98	103...115	119...125	133...163	173...192
18	1000	160	120	100	80	70	-	-
	1500	240	180	150	120	100	90	70
	2000	320	230	190	150	130	110	90
19	1000	180	140	110	90	80	-	-
	1500	270	200	160	130	110	100	80
	2000	350	260	210	170	140	130	100
20	1000	200	150	130	100	90	-	-
	1500	300	220	180	140	120	110	90
	2000	390	290	240	190	160	14	110
21	1000	220	170	140	110	100	-	-
	1500	330	240	200	160	140	120	90
	2000	430	320	260	210	160	150	120
22	1000	250	180	150	120	110	-	-
	1500	360	260	220	170	130	130	100
	2000	470	350	280	230	190	170	130

Mahsulot quvurida havoning tezligi v_h , m/s	Tirsakning radiusi, r , mm	Mahsulot quvurining ichki diametri D , mm						
		56...66	72...81	85...98	103...115	119...125	133...163	173...192
23	1000	270	200	170	130	120	-	-
	1500	390	290	240	190	160	140	110
	2000	520	380	310	250	210	190	140
24	1000	290	220	180	150	130	-	-
	1500	430	310	260	210	180	160	120
	2000	560	410	340	270	230	200	150

Mahsulot tik ko'tarilishi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_k = \rho \cdot \mu \cdot h \cdot g = 1,2 \mu \cdot h \cdot g, \quad (18)$$

bu yerda: h — mahsulotni pnevmoqabul qilgichdan mahsulot ajratgichgacha bo'lgan vertikal quvurning uzunligi, m.

Mahsulot ajratgichda yo'qotilgan bosim quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_{sA} = \xi \cdot \rho v_k^2 / 2, \quad (19)$$

bu yerda: ξ — bo'shatgich-siklonning qarshilik koeffitsiyenti, u quyidagiga teng:

$$\text{ЦПК} - 3,7$$

$$\text{ЦПК} - 4,5$$

УЦ38-20 ДЦ (ДЦ — bo'shatgich-siklonning diametri). v_k — bo'shatgich siklonning patrubogidagi havoning tezligi, m/s quyidagichadir:

ЦПК — bo'shatgich-sikloni uchun:

don 8...10 m/s

yormalash va un tortish tizimlarining mahsuloti 14..20 m/s

ЦП — bo'shatgich-sikloni uchun:


un tortish tizimlarining mahsuloti 14...18 m/s

УЦ-38 bo'shatgich-sikloni uchun:

un tortish mahsuloti va un 10...12 m/s

Qisuvchi uskunada yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{q.y.} = \xi_{q.y.} \cdot \rho_{q.y.} \cdot (Q_{q.y.} / K_{q.y.})^2, \quad (20)$$



71-rasm. Qisuvchi uskuna sxemasi.

bu yerda: ξ_{qy} — Venturi soplosining qarshilik koeffitsiyenti, 2,5 ga, Venturi quvuri uchun 1 ga teng; ρ_{qy} — qisuvchi uskunaning kirishdagi havoning zichligi, kg/m^3 ; Q_{qy} — qisuvchi uskunadagi o'tadigan havo sarfi, m^3/soat ; K_{qy} — qisuvchi uskuna havo sarfining koeffitsiyenti, 11-jadvaldan (71-rasm) aniqlanadi.

11-jadval

Qisuvchi uskuna tavsifi

Tartib raqani	Qisuvchi uskunaning o'lchamlari (71-rasm)				Sarf koeffitsiyenti
	D	D_1	D_2	A	
1.	315	200	345	1145	530
2.	355	225	385	1290	670
3.	400	255	430	1455	870
4.	450	290	480	1615	1040
5.	500	320	530	1790	1360
6.	560	355	590	2035	1720
7.	630	400	660	2290	2120
8.	710	450	740	2580	2750
9.	800	510	830	2890	3450

Pnevмотransпорт qurilmasining havoni almashtirish (ventilatsiya) qismi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{v.q.} = H_{kol} + H_{ch.t.} + H_{h.o.} + H_{h.o.} \quad (21)$$

bu yerda: H_{kol} — havo o'tkazgichning kollektorida yo'qotilgan bosim ($H_{kol} = 300 \dots 500 \text{ Pa}$, tarmoqlangan kollektorning uzunligiga bog'liq); $H_{ch.t.}$ — chang tutgichda yo'qotilgan bosim, Pa ; $H_{h.o.}$ — bog'lovchi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim, ($H_{h.o.} = 500 \dots 1000 \text{ Pa}$, havo o'tkazgichning uzunligiga bog'liq).

Pnevмотransпорт qurilmasiga havo haydovchi mashina tanlashda yo'qotiladigan bosim quyidagicha hisoblab aniqlanadi:

Mahsulot quvurida havoning tezligi v_h , m/s	Tirsakning radiusi, r , mm	Mahsulot quvurining ichki diametri D , mm						
		56...66	72...81	85...98	103...115	119...125	133...163	173...192
23	1000	270	200	170	130	120	-	-
	1500	390	290	240	190	160	140	110
	2000	520	380	310	250	210	190	140
24	1000	290	220	180	150	130	-	-
	1500	430	310	260	210	180	160	120
	2000	560	410	340	270	230	200	150

Mahsulot tik ko'tarilishi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_k = \rho \cdot \mu \cdot h \cdot g = 1,2 \mu \cdot h \cdot g, \quad (18)$$

bu yerda: h — mahsulotni pnevmoqabul qilgichdan mahsulot ajratgichgacha bo'lgan vertikal quvurning uzunligi, m.

Mahsulot ajratgichda yo'qotilgan bosim quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$H_{sA} = \xi \cdot \rho v_k^2 / 2, \quad (19)$$

bu yerda: ξ — bo'shatgich-siklonning qarshilik koeffitsiyenti, u quyidagiga teng:

$$\Pi P_K - 3,7$$

$$\Pi P_K - 4,5$$

УЦ38-20 Ду (Ду — bo'shatgich-siklonning diametri). v_k — bo'shatgich siklonning patrubogidagi havoning tezligi, m/s quyidagichadir:

ЦПк — bo'shatgich-sikloni uchun:

don 8...10 m/s

yormalash va un tortish tizimlarining mahsuloti 14...20 m/s

ЦП — bo'shatgich-sikloni uchun:


un tortish tizimlarining mahsuloti 14...18 m/s

УЦ-38 bo'shatgich-sikloni uchun:

un tortish mahsuloti va un 10...12 m/s

Qisuvchi uskunada yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{qy} = \xi_{qy} \cdot \rho_{qy} \cdot (Q_{qy} / K_{qy})^2, \quad (20)$$



71-rasm. Qisuvchi uskuna sxemasi.

bu yerda: ξ_{qy} — Venturi soplosining qarshilik koeffitsiyenti, 2,5 ga, Venturi quvuri uchun 1 ga teng; ρ_{qy} — qisuvchi uskunaning kirishdagi havoning zichligi, kg/m^3 ; Q_{qy} — qisuvchi uskunadagi o'tadigan havo sarfi, m^3/soat ; K_{qy} — qisuvchi uskuna havo sarfining koeffitsiyenti, 11-jadvaldan (71-rasm) aniqlanadi.

11-jadval

Qisuvchi uskuna tavsifi

Tartib raqani	Qisuvchi uskunaning o'lchamlari (71-rasm)				Sarf koeffitsiyenti
	D	D_1	D_2	A	
1.	315	200	345	1145	530
2.	355	225	385	1290	670
3.	400	255	430	1455	870
4.	450	290	480	1615	1040
5.	500	320	530	1790	1360
6.	560	355	590	2035	1720
7.	630	400	660	2290	2120
8.	710	450	740	2580	2750
9.	800	510	830	2890	3450

Pnevмотransпорт qurilmasining havoni almashtirish (ventilatsiya) qismi uchun yo'qotilgan bosim quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$H_{v.q.} = H_{kol} + H_{ch.t.} + H_{h.o.} + H_{h.o.}, \quad (21)$$

bu yerda: H_{kol} — havo o'tkazgichning kollektorida yo'qotilgan bosim ($H_{kol} = 300 \dots 500$ Pa, tarmoqlangan kollektorning uzunligiga bog'liq); $H_{ch.t.}$ — chang tutgichda yo'qotilgan bosim, Pa; $H_{h.o.}$ — bog'lovchi havo o'tkazgichda yo'qotilgan bosim, ($H_{h.o.} = 500 \dots 1000$ Pa, havo o'tkazgichning uzunligiga bog'liq).

Pnevмотransпорт qurilmasiga havo haydovchi mashina tanlashda yo'qotiladigan bosim quyidagicha hisoblab aniqlanadi:

$$H_h = H_{n.q} + H_{v.q} + H_{h.o} \quad (22)$$

bu yerda: $H_{h.o}$ — tarmoqda hisobga olinmagan yo'qotilgan bosim (umumiy yo'qotilgan bosim $H_u \leq 6000$ Pa bo'lganda $H_{h.o} = 800$ Pa bo'ladi, $H_u > 6000$ Pa bo'lganda $H_{h.o} = 1500$ Pa bo'ladi).

5-§. HAVO HAYDOVCHI MASHINALARNI TANLASH

Havo haydovchi mashinalarni tanlashda pnevmotarmoqning ko'rsatkichlari hisoblangan havo sarfi (Q_h) va hisoblangan bosim (H_h) ga qarab, havo haydovchi mashinaning tavsifnomasidan tanlanadi.

Havo haydovchi mashinaning hisoblangan bosimi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{h.u} = \frac{H_h}{1 - \frac{H_h}{101300}}, \quad (23)$$

bu yerda: H_h — pnevmotransport qurilmasining hisoblangan bosimi, Pa.

Havo haydovchi mashinaning hisoblangan havo sarfi Q_h quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_h = 1,05 (\Sigma Q_f + \Sigma \Delta Q_f), \quad (24)$$

bu yerda: Q_f — filtrga kiradigan havo miqdori, $m^3/soat$; ΔQ_f — filtrga qo'shimcha so'riladigan havo miqdori, $m^3/soat$.

Havo haydovchi mashina elektr dvigatelining talab etiladigan quvvati quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$N_h = \frac{Q_h \cdot H_{h.u}}{3600 \cdot 1000 \cdot \eta_{h.h} \cdot \eta_y \cdot \eta_{pod}}, \quad (25)$$

bu yerda: $\eta_{h.h}$ — havo haydovchi mashinaning foydali ish koeffitsiyenti. Mashinaning aerodinamik tavsifnomasidan aniqlanadi; η_u — uzatmaning foydali ish koeffitsiyenti, u havo haydovchi mashina elektr dvigateli bilan bir o'qda ishlasa 1,0 ga teng, mashina o'qiga mufta orqali bog'langan bo'lsa, 0,98 ga, tasma orqali bog'langan bo'lsa, 0,95 ga teng; η_{pod} — podshipniklarda yo'qotilgan energiyani hisobga oluvchi koeffitsiyent, 0,98...0,99 ga teng.

Tekshirish uchun savollar

1. Pnevmotransport qurilmalarini loyihalashda va hisoblashda qaysi asosiy ma'lumotlar kerak bo'ladi?

2. Pnevмотransport qurilmalari qanday ketma-ketlikda loyihalanadi?
3. Pnevмотransport qurilmalarini hisoblashda qanday maqsad va boshlang'ich ma'lumotlar kerak bo'ladi?
4. Pnevмотransport qurilmalarida yo'qotilgan bosim qaysi qismlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisidan iborat?
5. Pnevмотransport qurilmasining ventilatsiya qismida yo'qotilgan bosim qaysi qismlarda yo'qotilgan bosimlar yig'indisidan tashkil topadi?
6. Havo haydovchi mashinalarni tanlash uchun qaysi hisoblash ko'rsatkichlaridan foydalaniladi?
7. Pnevмотransport qurilmalari uchun bo'shatkich qanday tanlanadi?
8. Pnevмотransport qurilmalarini hisoblash tartibi qanday?

X BOB. KO'P MIQDORDAGI AEROARALASHMALARNI KO'CHIRUVCHI PNEVMOTRANSPORT QURILMALARI VA AEROQUVURLAR

1-§. KO'P MIQDORDAGI AEROARALASHMALARNI KO'CHIRUVCHI PNEVMOTRANSPORT QURILMALARINING BELGILANISHI VA AHAMIYATI

Mayda zarrali kukunsimon mahsulotlarni havo yordamida ko'chirishda aerzoltransportdan foydalaniladi. Aerzoltransportda mahsulotni ko'chirishda 1 kg havoda kukunsimon mahsulot miqdori $\mu = 50 \dots 200$ kg ni tashkil qiladi. Bu esa havoda mahsulot miqdori ko'p bo'lishini ta'minlaydi.

Aerzoltransport qurilmalarida kukunsimon mahsulotlarning havo bilan to'yinish xususiyatidan foydalanilgan. Bu usulda mahsulotlarni vertikal va gorizonttal yo'nalishlarda xohlagan masofaga ko'chirish mumkin.

Kukunsimon mahsulotlar havo bilan to'yintirilganda ularning fizik xususiyatlari o'zgaradi, ya'ni ichki ishqalanish koeffitsiyenti va hajmiy massasi kamayishi natijasida ular oquvchan bo'ladi va ko'chirish osonlashadi.

Omixta yem korxonalarida aerzoltransportning quyidagi liniyalari nazarda tutiladi:

- don va kunjarani maydalash;
- kepak tayyorlash;
- tarkibiy qismlarni oldindan aralashtirish;
- tayyor mahsulotni ko'chirish.

Aerzoltransport qurilmalarining afzalliklari:

- qurilmalarning ish unumi yuqori;

— mahsulotni ko'chirishda juda kam havo sarflanadi. Bu esa qurilmadagi ajratgichlar va chang tutgichlarning o'lchamlarini ancha kamaytirish imkoniyatini beradi;

— 1 tonna mahsulotni ko'chirish uchun pnevmotransport qurilmasiga nisbatan kam energiya sarflanadi;


— chidamli va tejamli ishlaydi, ularga xizmat ko'rsatish oson.

2-§. QURILMALARDAGI SHLUZLI VA SHNEKLI QABUL QILGICHLARNING ISHLASH ASOSLARI VA TUZILISHI

Ko'p miqdordagi kukunsimon mahsulotlarni kam havo bilan ko'chirish uchun katta bosim talab qilinadi. Aerozoltransport qurilmalarida kerakli bosimlar farqini ta'minlash uchun faqat haydovchi aerozoltransport qurilmalari qo'llaniladi.

Haydovchi aerozoltransport qurilmalarining ishlash ko'rsatkichlari quyidagicha: quvvati 18...20 t/soat; mahsulot o'tkazgich quvurining balandligi 40 m; mahsulot o'tkazgichning umumiy uzunligi 150 metrgacha; havo oqimining boshlang'ich tezligi 6...17 m/s.

Aerozoltransport qurilmalari (72-rasm) asosan quyidagilardan tashkil topgan: kompressor; havo o'tkazgichlar; shnekli ta'minlagich; mahsulot o'tkazgichlar; bo'shatgich.



72-rasm. Unni ko'chirish uchun mo'ljallangan aerozoltransport qurilmasining sxemasi:

1 — kompressor; 2, 5 — havo-moy ajratgichlar; 3 — resiver; 4 — havo o'tkazgich; 6 — taqsimlovchi havo o'tkazgich; 7 — shnekli ta'minlagich; 8 — manometr; 9 — mahsulot o'tkazgich; 10 — ikki holatli almashlab ulagich; 11 — un bunkeri.


Aerozoltransport qurilmalarining eng muhim qismi ta'minlagichlardir. Ularga alohida talablar qo'yiladi.

